

## Sadr Ziyoning shaxsiy kutubxonasi

*Ismoil BEKJONOV, filologiya fanlari nomzodi*

### Bismilloh-il-Alimu-l-Hakim

Ammo ba'd: Ulamolar ustozi, faqihlar ustodi, qozilar qozisi, Buxoro qozikalonni domla Abdishukur sadrning o'g'li Ziyo taxallusli qozi Mirzo Muhammad Sharif sadr shunday deydi. Kichik yoshimdan va talabalik vaqtimdan har boradagi kitoblarni yig'ishga to'la sa'y-harakat qildim. Aniqrog'i, qachondir birovning qo'lida biror kitob ko'rib qolgudek bo'lsam yoki qaerdadir dilga yoqar kitob borligini eshitsam, tirishqoqligim va erinmasdan izlanishim tufayli imkonim boricha o'sha kitoblarni qo'lga kiritardim. Ba'zida biron-bir mumtoz kitobni ishlarni o'nglovchi Tangri inoyati va ko'magida tekin qo'lga kirtsam, gohida egasining qadr biluvchiligi orqasida pul kuchi bilan o'zimniki qilib olardim. Mabodo ularni bir necha tanga yo tilloga sotib olgudek bo'lsam "jonsiz jism berib, jon sotib oldim" deya qanday arzon-garovga oлganim barobarida Xudoga shukrlar aytardim. Shu yo'sin har xil asr va zamonanining mashhur kotiblari va davronning mislsiz xattotlari xatiga mansub mumtoz kitoblar va tengsiz asarlar ushbu hech narsa bilmash kaminangiz kutubxonasidan joy oldi.

Zamonanining sustligi, kotiblarning noyobligi va xattotlarning yo'qligi sababli ushbu kunlarimizda o'tgan asr, kechgan zamonlarning mashhur kotiblari nomi butunlay ko'rinxmay qoldi va ismlari unutildi. Biror kotibni biluvchi yoki yozuvini tanuvchi, ularning xushxatligi qadriga yetuvchi biron kishi topilmayapti. Bu kabi befarqlik va loqaydlik kun sayin ortib, borgan sari, aksincha, mazkur holning yana ham avj olayotgani mushohada etilmoqda. Ana o'sha muhtaram kotiblar nomini tiriltirmoq va buyuk o'rindbosarlar nomini boshqalarga bildirmoq ilinjida o'z shaxsiy kutubxonamdagagi kitoblarni ushbu tariqa nomma-nom tilga olmoqqa ixtiyor etildi. Alloh madadkor bo'lsin.

**Qori Ahmad Buxoriy qalami bilan bitilgan Kalomi sharif.** Qori Ahmad mag'firatli Sayyid Amir Muzaffar Bahodirxon va uning baxtiyor o'g'li Sayyid Amir Abdulahad Bahodirxonning fayzga qorishiqli zamonasi kotiblari va xushnavislari mashhurlaridan edi. Mazkur qori xattotlik va xushnavislik sohasida o'z asri kotiblarining boshlig'i va zamon xushxatlarining sarasi bo'lib, mazkur davroning bu sohadagi yetuk ustozi va zamonning mumtozi sanalmish va quyiroqda nomini tilga olmoqchi bo'lganimiz Mir Ubayddan bo'lak hech kim husnixatlikning bu singari qoidalarni bilish va to'g'ri-tiniq yozish bobida ul martabaga yetishmagan edi.

Kotiblik sohasida ham o'xhashi yo'q edi. Kambag'allik va yo'qsillik natijasida gohi paytlari ayrim hokimlar idorasida mirzolik va navisandalik yumushlarini ham bajarardi.

Kitobat ishlari bobida ko'chirib yozganlari soni 400 jilddan ziyoddir.

Yumshoq tabiatli, hakim sifatli, halol-haromdan tiyinuvchi parhezkor odam bo'lib, Amir Abdulahad Bahodirxonning saodat alomatli zamonida rahmat qabtoliga yetishdi. Unga Allohning rahmati bo'lsin.

**Qori Ahmad Buxoriy xati bilan yozilgan yana bir Kalomi sharif nusxasi.** U o'n sakkiz varaqdan iborat bo'lib, xattot uni mazkur sultonlarning xos nadimi bo'lgan Abdurahim maxdum tabib buyurtmasiga binoan o'ta diqqat va juda chiroyli

ravishda kitobat qilgan. Xattot bu qo‘lyozma nusxani yaratishda hatto quyidagicha mashaqqatli yo‘l tutgan: biron sahifada kutilmaganda biror nuqta tushib qolsa yoki noo‘rin yozilib qolgudek bo‘lsa, ularni o‘chirish yo‘li bilan to‘g‘rilab o‘tirmasdan, balki o‘sha varaqni yirtib olib, o‘rniga to‘g‘ri yozilganini qo‘ygan. Shu sababli kitobning boshidan to oxirigacha qayta qalam tekizib to‘g‘rilangan joyni uchratmaysiz.

Go‘zalligi va xushro‘yligi jihatdan hech tengi yo‘q. Hech mubolag‘asiz dillarga jon, balki undan ham yaxshiroq.

Birinchi nusxasi sakkiz varaq bo‘lib, uning shu kundagi bahosi 30.000 (o‘ttiz ming) tanga turadi.

Umuman o‘n sakkiz varaqli bu qo‘lyozma butunicha 50.000 (ellik ming) tanga bahoga chaqiladi.

**Yana bir o‘n sakkiz varaqli Kalomi sharif.** Bu nusxa esa Muhammad Quli Turkmon tomonidan bitilgan. Ul mashhur kotib Mir Ubaydning shogirdi bo‘lib, Sayyid Subhonqulixon va Abulfayzxon ning saodat qorishiqli zamonasidagi mashhur xattotlar va taniqli kotiblar jumlasidan sanaladi. Garchi Muhammad Quli Turkmon bilan ustoz Mir Ubayd xati orasida ozgina tafovut bo‘lsa-da, xat sohasida mahorati kamroq ayrimlar buni payqay olmay “qay biriniki ekan” deya ikkilanib qoladilar.

Har holda qo‘limizdagи bu kitob o‘ta malohatlар bo‘lib, go‘zallikda tengi yo‘q hisoblanadi. Buxoroning Qur’он nusxalarini bituvchi xattotlari va tajvid biluvchi mutaxassislar ustozi bo‘lmish domla Abdurahim Qurro bu kitobning o‘ta yaxshiligi borasidagi ta’riflarni haddan oshirib “uni Mir Ubayd o‘zining umri oxirlarida yozgan” deya qattiq turib ham oldilar. Barcha narsani bilguvchi yolg‘iz Allohdir.

Ushbu kunlarda bu Qur’oni karim nusxasining narxi 40 000 (qirq ming) tangadir.

**Yana bir Kalomi sharif.** Kotiblar ustozi, olam aro tan olingan beqiyos husnixat egasi Yoqut Musta’simi xati bilan bitilgan nusxa. Yoqutning sharif ismi Jamoliddindir. Abbosiy xalifalaridan o‘ttiz sakkizinchisi va musulmonlarning eng so‘nggi xalifasi sanalgan Musta’sim Billohning mamluklaridan biri bo‘lgan. Bu xalifa chingiziy Xulokuxon tomonidan mahv etilib, unga qarshi fitnani esa mazkur xalifa saltanatining tadbirsiz vaziri Ibn Alqama uyushtirgan va chingiziylarni bu ishga undagan. Natijada xalifalik shu zayl yakun topgan. Shayx Sa’diy Sheroziy Abbosiy Musta’sim marsiyasida degan:

Osmonro haq bud gar xun biborad bar zamin,  
Bar zavoli malik Musta’sim amir ul-mo‘minin.  
Ey Muhammad gar qiyomat mebarori sar zi xok,  
Sar baror va in qiyomat dar miyon xalq bin.

Mazmuni:

Osmon haqli edi gar qon yog‘dirsa,  
Malik Musta’sim davlati zavoliga ochib aza.  
Ey Muhammad, qiyomatda ko‘tarsang yerdan bosh,  
Ko‘rarsan xalq qo‘ptirgan bu qiyomatni.

Yoqut xatda Ibn Buobning shogirdi bo‘lgan. U esa Billih Abbosiyning qudratli vaziri Ibn Muqlaning shogirdi ekan. Ibn Muqla suls xatining olti turini ixtiro qilgan:

muhaqqiq, tavqi', ruqo', ta'liq, nasx, rayhon. Ibn Muqla bularning barini uyquda chog'i amirulmo'minin Alidan – Alloh yuzini karamli qilsin – o'rgangan ekan.

Amir Temur Guragon zamonida Xoja Mir Ali Tabriziy nasx va ta'liq xatini birbiriga qo'shib, yana bir ko'rinishli xat ixtiro qilgan va uni "nasta'liq" deb atagan.

Asl maqsadimizdan uzoqlashib ketdik. Keling, yaxshisi, xattot Yoqut hikoyasiga qaytaylik. Yoqut xalifa Musta'sim uchun ko'chirgan nusxadagi "nasruvo" oyati karimasining bitta "vov" harfini ataylab tushirib qoldiribdi. Aslida uning yozuvidagi bu xato sira ham sezilmash bir holatda bo'lган ekan. Xalifa Musta'sim o'qish asnosida buni payqab, Yoqutga xatoni to'g'rilab qo'yishni buyuribdi. Yoqut: — Ey xalifa! "Mening yozganlarimni to'g'rilashga hech ham ehtiyoj tug'ilmaydi" degan o'yda bo'lib, shu sababli yozganlarimga ikkinchi marta qalam tekizmaslik borasida ont ichgandim. Endilikda, tasodifdan bittagina xato o'tgan ekan, bu narsa uchun qasamimni buzib, azmu qarorimni o'zgartira olmaymen. Xudoga shukr xalifaning xizmatida menga o'xhash, hatto, mendan ham yaxshiroq xattotlar juda ko'p. Hazratim o'shalardan birontasiga buyursalar, balki bu ip tuguni yechilib qolar, — debdi.

Xalifa bu yanglig' gapni eshitib, ko'ngli og'rinibdi va Yoqutni zindonga jo'natib, boshqa xattotlarni saroyga chaqirishlarini buyuribdi. Bag'dodni axtarib, to'rt yuz nafar xattot topibdilar va barchasini dovruqli xalifaning Kayvon qadarli yuksak saroyiga keltiribdilar. Ammo ulardan hech qaysinisi "vov" harfini yozishga mayl va jur'at etmabdi. Xalifa Musta'sim qon to'kishga juda o'ch hukmdor edi. Darg'azab bo'lib, ular ustidan o'lim hukmini chiqarishga shaylanibdi. Buni sezgan xattotlar noiloj qolib, muhlat so'rashibdi. Bu to'rt yuz nafar xattot o'z ichidan eng mohir to'rt nafarini tanlabdilar. Saylangan to'rt nafar xattot qirq kun davomida mashq qilishdan o'zga narsaga qo'l urmay, mazkur muddatdan so'ng ulardan uch nafari ham bu ishni uddalay olmasligini bo'yniga olishibdi va yolg'iz bir kishini tavsiya etishibdi.

O'sha xattot xalifa tomonidan "vov" harfini yozib qo'yish ishiga tayinlanibdiyu, biroq u ham bunga jur'ati yetmasligini xalifa Musta'simga arz qilib "vov" harfini dastlab harir qog'ozga bitsam va atrofini qirqib olib, yozish kerak joy ustiga yopishtirib ko'rsatsam, agar bu yozuvim xalifaning ko'ngillariga yoqsa, shundan so'ng varaq uzra yozishga ruxsat olsam. Yo'qsa., masalani ochiq qoldirsam." debdi.

Barchasi bu fikrni ma'qullab, tahsin aytishibdi. Shu tariqa haligi bir nafar xattotni ertasi kuni bilan "vov"ni yozishga qo'yib, nihoyat yozgan "vov"laridan eng yaxshi va chiroyli chiqqan bittasini harir qog'ozdan qirqib olib, yozish kerak bo'lган joy ustiga qo'yishibdi. Ammo uning shuncha chiroyli "vov" harfi Yoqut harflari tizmasi orasida xuddi yoqut va marjon shodasiga terilgan loy ko'zmunchoqqa o'xshab, farqi yaqqol bilinib qolibdi. Nochor bu ishni to'xtatibdilar. Lekin bir yil davomida Yoqut shu zayl zindonda qolib ketibdi.

Rivoyat etuvchining aytishicha, shu muddat mobaynida shafelar o'rtaga tushib, Yoqutning gunohini so'rayverishibdi va xalifadan uni "vov"ni yozib qo'yish sharti bilan ozod etishini iltijo qilib, tutqunlikdan chiqarib olishibdi. Yoqut qutulgach, xalifa unga tag'in "vov" harfini yozib qo'yishni buyuribdi. Yoqut "Ey xalifa, xizmatkorlik boshqa narsa, san'atkorlik o'zga narsa, mening xizmat haqimni tayin qilsalar, yo'qsa bu ishdan meni ma'zur tutsalar" debdi. Xalifa baho chiqaruvchilarga

“vov”ning narxini aniqlab berishni buyuribdi. Zamon xattotlari va narx belgilashga usta mutaxassislar uning bahosini bir xarvor oltin, boshqacha qilib aytganda yuz ming dinorga chaqishibdi. Saodat baxshishli xalifa o’sha arzimagan bir xarvor pulni olib chiqib, Yoqutga topshirishga buyruq beribdi. Dono san’atkor Yoqutga bir xarvor oltinni topshirganidan so‘ng xattot undan bir dona dinor pulni olib, shu yerda turgan darvishga baxshida qilibdi-da debdi: — Ey xalifa, bu barcha gap va ishlardan e’tiborsiz bu bandaning maqsadi faqat Allohning yerdagi o‘rnbosari Musta’sim Billohning kundan-kun rivoj topayotgan davlati soyasi ostida mendek osiy bandaga shohona va valine’matlik tarbiyati tufayli yetishgan fazilat va san’atning qadr-qiymatini bildirmoq va el aro e’lon qilmoq edi. Bo‘lmasa, menga dunyoviy matohlar va xalifa dargohidagi narsalardan o‘zgasiga biron ta ehtiyoj bormidi, — deya xazinachi tomon yuzlanibdi va bir xarvor oltinni ko‘tarib, xazinaga eltib qo‘yishini ayтибди. Shularni aytgach, shu tikka turgan holicha “vov”ni o‘z o‘rniga bitib qo‘yibdi.

Yoqut qur’oni hozir bu o‘lkada mayjud emas. Uning taqdirini hech kim bilmaydi. Narxini ham biron kimsa to‘g‘ri baholab bera olmaydi. Sharif haramlar va Istanbulda dur va yoqutni uning qiymatiga barobar ko‘rmaydilar. La’l va zumrad bilan narxini o‘lchashni amri mahol biladilar. Chunonchi, sohibi hunar dono Usto Isoqul To‘qsoba zargar islom haji safariga otlangan vaqtida Yoqut qur’onidan bir nusxasini qo‘lga kiritib, muqovasiga javohirdan bezak bergen va munavvara Madinada ul sarvarning munavvar qabrining muattar ravzasiga tuhfa qilib, shundan ko‘p izzat va cheksiz hurmat topgandi.

Endi yana Yoqut hikoyasiga qaytsak, mo‘g‘ullar xalifa Musta’simni qo‘lga tushirib, o‘ta ayanchli bir suratda qatl etadilar va Bag‘dod aholisini yoppasiga qirg‘in qilishga tushadilar.

Qur’on yozishga o‘ta ishtiyoqli Yoqut bu g‘ala-g‘ovurdan o‘zini chekkaga olarkan, qochib bir minora ustiga chiqib, xat yozish mashqini davom ettirish o‘yida bo‘ladi. Yonida qalam va dovot yo‘qligidan esa o‘z a‘zoi badanidan bir yerini yaralab, qon oqizadi. So‘ng barmog‘ini o‘sha qonli joyiga tekizib, qonli barmog‘i vositasida egnidagi oppoq ko‘ylagiga Qur’on oyatlarini bitib o‘tiradi. O‘sha chog‘i go‘l bir mo‘g‘ul minoraga chiqib qolib, xushnavis xattotni shahidlik izzatiga yetkazadi.

Bu qur’onning narxini uning bitta “vov”iga qo‘yilgan narxdan qiyoslab bilish mumkin. Kamina uning tavsifida “Yoqut va marjondek” degan so‘zdan bo‘lak yana nimani ayta olardi. Bu kalomi sharif nusxasining narxi va bahosi borasida ozgina dirhamdan o‘zga nimani tilga olaman.

**Yana bir Kalomi sharif.** Yoqutning shogirdlaridan biri qo‘li bilan bitilgan.

Yoqutning mo‘tabar shogirdlari olti nafar bo‘lishgan. Birinchisi “Shayxzoda Suhravardiy” laqabi bilan tanilgan Shayx Ahmaddir. Ikkinchisi Arg‘un Kobuliy, uchinchisi mavlono Yusufshoh Mashhadiy. To‘rtinchisi mullo Muborakshoh Zarrinqalam, beshinchisi Sayyid Haydar, oltinchisi Mir Yahyodir.

Bu Qur’on nusxasi o‘sha shogirdlaidan biri tomonidan ko‘chirilgan. Ammo hech narsa bilmas kamina, notavon roqim uning o‘sha shogirdlaridan qay birining xatiga mansubligini aniq bilmaydi. Chunki ularning yozganlari bizning diyorimizga yetib kelmagan va nazarimizga yetishmagan. Ularning anqo qushidek noyob

nomlari ma'lum esa-da, biroq qo'lyozmalaridan biron nishon yo'q. Shu jihatdan bu qo'lyozma nusxanining narxini belgilashdan tiyinishga majburmiz.

**Shayx Sharafiddin Abi Abdulloh Muhammad ibn Said al-Dallosiy summil al-Busiriyning Qasidai burda kitobi.** Busiriy hijriy 694 yil da vafot etgan.

Qo'lyozma kitob olam aro asr yagonasi, dahr ichra tengsiz mumtoz, mishkin qalamli, jodu raqamlı, xattotlar tan bergen va xusnixat sohasida barchadan peshqadamlıkdä mashhur Mir Ubayd xati bilan bitilgan. Ul janoblari mavlono Halvoiyning shogirdi erur. Shogird bo'lganida ham gohida o'z ustozini hayratga solgan ajib bir shogirddir! Yoqut va Ibn Muqla tarzidagi suls uslubida xat bituvchi ustoz yo'sinini tark etib, o'ziga xos yoqimli, go'zal tarzni ixtiro etgan. Hozir uning bu yozish ravishi Buxoroda hammaga ma'lum bo'lib, barchaga manzurdır. Bu uslubdagı ma'qul, tahsinga loyiq yo'nalishni yetuklik darajasiga yetkazib, "o'zim yakka-yu yagonaman" noqorasini chalarkan yer yuzining yaqin-yiroq o'lkalari ahli, turk va tojik xalqi tilidan "omano va sadiqno" ovozi jaranglab, eng yuksak va eng quyi nuqtalargacha yetdiki, shu sababli zamonning barcha kotiblari va davronning bari xattotlari Ibn Muqla va Yoqut uslubidan yuz o'girib, Mir Ubayd yo'sinini dilu jondan qabul qildilar. Mir Ubayd shu yo'nalish asoschisi va o'sha ravish yoyguvchisi bo'ldi.

Ilgarigi usulni kamol darajasiga yetkazgan eng so'nggi xattot mavlono Halvoiy edi. Ikkinchisi yo'nalishni tahsin va go'zallik maqomiga olib chiqqan birinchi san'atkor Mir Ubayd bo'ldi. Islom paydo bo'lishi boshidan to ushbu kunlarimizgacha xattotlik sohasida uch nafar asoschi yuzaga kelgan. Eng birinchisi al-Qohir Billoh Abbosiyning vaziri Ibn Muqla, ikkinchisi "Mir Ali Voze" laqabini olgan Mir Ali Tabriziy. Uchinchisi Mir Ubayd bo'lib, u sohibqiron amir Ubaydulloh Bahodirxon bin Sayyid Subhonqulixon ning fayzga qorishiq zamonida uch nafar sohibi tadbir Mirning uchta tengsiz hunar sohasida yaratgan ajib ixtiro hodisalari ishtirokchisidan biri edi. Bu uch nafar Mir va uch hunar ixtirosi ham aslida xattotlik va kitobat san'atiga mansub bo'lib, o'sha uch nafar sohibi hunar birgalikda o'z ishlariga kirishganlar.

Birinchisi Mir Ibrohim bo'lib, bu Mir ipak qog'ozini ixtiro qilgan. Ikkinchisi Mir Ubayd kotib bo'lib, ul qog'ozga xat bituvchilik vazifasini zimmaga olgan. Uchinchisi Mir Shafe' bo'lib, naqqoshlik, lavvoqlik, jadvalkashlik bobida hech bir asrda unga tengi bo'lgani haqida hech kim biron xabar bilmaydi. U o'z ishi bilan Mir Ubaydning yozganlariga ziynat bag'ishlardi. Buxoro va unga qarashli yerlarda Mir Ubayddan keyin faoliyat ko'rsatgan xattotlarning barchasi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita Mir Ubaydning shogirdlari hisoblanadilar. Har biri Mir Ubayd yaratgan usulda yozadilar. Bu yo'nalishni Qori Ahmad kotib Buxoriy kamolot haddiga yetkazdi. Abdullohbek kotib Yakkabog'iy ustozidan ham o'tkazib yubordi. Ushbu kitobimizda tez orada uning zikri ham bayon maydoniga kiritiladi.

Mir Ubaydning yozganlari juda kam. U bitgan bitta Kalomi sharif nusxasi Buxoro davlatining xazinasida turibdi. Yana biri fazilat nishonli, kamolot ayonli va "Hashmat" taxallusli to'ra bo'lmish Sayyid Mir Siddiq to'raning tasarrufidadir.

Bu to'ramiz mag'firat makonli Amir Muzaffar Bahodirxonning aziz o'g'li bo'lib, bu saodatli to'ra o'ttiz ikki yil tutqunlik va band asirligida turgan, o'sha

muddat mobaynida zamonasida rasm bo‘lgan barcha ilmu hunar va fazilatlarni hech kimdan ta’lim olmasdan turib, faqat o‘z tirishqoqligi orqasida o‘zlashtirgan.

Ayniqsa, nujum, xattotlik sohasi va oliy darajaligi barchaga ma’lum handasa fanini o‘zida mavjud fazlu kamol tufayli o‘rganib, yaxshi kitoblar va husnixatda bitilgan qo‘lyozma asarlar yig‘ish borasida ham oltin pullarni ayamay sarf qilgan. Bu qo‘lyozma kitoblarning ko‘p qismi noyob asarlar bo‘lib, ul yagonai farzona to‘raning kutubxonasidan joy olgan.

Shu tariqa Mir Ubayd ko‘chirib yozgan bir dona Kalomi sharif nusxasiga egalik saodati ham qo‘lga kirdi. Ushbu kamtarin kamina Ziyo Sadr bu “mulkdan baxtiyor” esa-da, bir kun kelib uni qo‘ldan chiqarish o‘yida doim qiynaladi: Vo hasrato ki mebaram in orzu ba xok (Voh darig‘kim, bu armonni o‘zim bilan tuproqqa olib ketarmen).

Bu noyob dur sanalgan qo‘lyozma hech qachon hech bir sabab bilan sotuvga qo‘yilmagani va qo‘yilmajagi uchun uning narxi borasida biron narsa deyishim qiyin.

**Daloil al-xayrot.** Shayx Abi Ubaydulloh Muhammad bin Sulaymon ibn Abi Bakr al-Juzuliy al-Semnoniy al-Sharif ul-Hanif (vafoti hijriy 854 sana da) ta’lif qilgan “Daloil al-xayrot” asarining bu nusxasi Abdulloh bek Kotib xati bilan bitilgan qo‘lyozmadir. Ul zot Yakkabog‘ viloyatining Buxoro sultonlari tasrrufidan ilgarigi davrlarida mustaqil ravishda hukm yurgizgan qadimiy mirlar va xonzodalar avlodidan sanaladi. Buxoro voliysi Sayyid Amir Muzaffar Bahodirxon u yerlarni istilo qilgach, o‘sha o‘lkaning bugungi hokimi bo‘lmish Abdurahmonbekni ukasi mazkur Abdullohbek bilan birga Buxoroga keltirarkan, shaharga kirib kelishi zahoti Abdurahmonbekni ukasi Abdullohbek Kotibning ko‘zi oldida o‘limga buyuradi-yu lekin Abdullohbekni hali bolakayligi va xushsuratlilikda o‘ta sohibjamolligi uchun rahm qilib, mirshabxonaga qamab qo‘yadi. Shu zayl saodatga ulangan bu bechora o‘n yil tutqunlik panjasida asirlikda turadi. Biroq mazkur tutqunligi chog‘i Yazdoniy ko‘mak va inoyat, rabboniy madad va hidoyat orqasida hech kimdan ta’lim olmasdan turib, ozgina diqqat-etibor tufayli xushnavislik va xattotlik bobida o‘zidan oldin o‘tgan barcha xattot va kotiblar nomi ustiga unutilish chizig‘ini tortish darajasiga yetishadi. Bu sohada o‘ziga teng keluvchi kishini ko‘rmaydi. “Bu Allohning fazlidur va uni xohlagan kishisiga beradi.” Xudoi taoloning hukmi avval shu bo‘ldiki, uni martaba tepasidan tutqunlik qudug‘iga tashladi., so‘ng ul tutqunlikdan bu kabi izzat va davlat avjiga ko‘tardi. Xullas, xat-yozuv yaratilishi vaqtidan to shu kungacha qalam ahli va yozuv-chizuv arbobidan hech biri xushxatlik sohasida bu yuksak daraja va xattotlik martabasida bu yanglig‘ katta yo‘lga yetishmagan va bundan keyin ham yetishmayajak. “Beshoyiba dar bobি kitobiya Mir Ali xonem ravost, Dar vajhi Qur’oni az Mir Ubayd behtar donem ham bajost. (Mazmuni: Kitobat bobida Mir Alidek desak shaksiz ravodir, Qur’oni yusnda Mir Ubayddan yaxshiroq bilsak bajodir.)

Abdullohbek Kotib o‘n yil Chahorjo‘y shahridagi badarg‘alikdan keyin, ul podshoh vafot etgach, Sayyid Amir Abdulahad Bahodurxonning fayz asarli zamonida eski qoidaga binoan yangi xusravning taxtga chiqish munosabati bilan beriladigan umumiy avf bo‘yicha boshqa gunohkorlar qatori ozod etildi va biroz vaqt Kayvon yulduziga yetguvchi saroy tegrasida podshohona uzangi xizmatiga

musharraf

bo'ldi.

Ammo ko‘p o‘tmay ul tengsiz san’atkor kishi shohona g‘azabga duchor bo‘lib, sultonlik zindonida ranju azob tortdi. Bu gal uzoq muddatli hibs va qamoqqa hukm etilgani oqibatida “unutilish va esdan chiqarilish” ro‘y berib, podshoh va boshqa kishilar xotirasidan unutilib, hech bir kimsadan yordam berish va o‘rtaga tushib, gunohini so‘rash kabi gaplar vujudga kelmedi. Bu voqeа yuzasidan chuqur hasratga botgan va mung tortgan ushbu satrlar qoralovchisi o‘sha kezлari kichik yoshda bo‘lganim uchun bu kabi kattalar ishining uddasidan chiqa olmasdim. Bu narsa faqat ushbu satrlar roqimining otasi vafot etgan kunlari amalga oshdi. Ya’ni majid otam rahmat qabtoliga yetishib, ta’ziya marosimlari tugagach, ushbu kunlarimizda rasm bo‘lgan odatga ko‘ra Allohning yerdagi soyasi bizlardan hol-ahvol so‘ragani evaziga bisotimdagи biron narsani berishim lozim bo‘lib, ulardan biri aziz jonimdan ham ortiqroq ko‘radiganim qo‘lyozma sanalmish Abdulloh Kotib qalami bilan kitobat qilingan “Daloili xayrot” kitobi edi. Ne qilay, ul bechorani qutqarish umidida bu kabi jonimdan ko‘ngil uzgancha, mazkur “Daloil”ni boshqa qimmatbaho sovg‘alarga qo‘srimcha qilib, o‘z tortiqnomha xatimda o‘zga buyumlar ro‘yxati qatori quyidagicha yozuv bitdim: Abdulloh Kotib xati bilan kitobat qilingan bir dona “Daloili xayrot”.

Ba xob ruyi tu didam, murod xoham yoft,  
Charo ki joni naku dar fanoi fol nakust.

## Mazmuni:

Tushda sening yuzing ko'rdim, murodimga yetajakmen,  
Chunki yaxshi jon sening yo'qligingda yaxshi foldir.

Xonga xat bitganim ham shu bo‘ldi, ul bechoraning qutulgani ham shu bo‘ldi. Ul notavon haqqida shu qadar ehson qilgan ekanman, mehribon Xudoi taolo shuning evazida ushbu “Daloil”ni kutmagan yerimdan oson va tekin yetkazdi. Yo‘qsa buning hech imkonni yo‘q edi. Negaki, ul tengsiz san’atkor balolarga mubtalolik va azoblarga duchorlik sababli nechalab bitiklar yaratish imkoniga muyassar bo‘lmay qolardi.

Abdullohbek Kotib o‘z umri davomida uch nusxa Kalomi sharif qo‘lyozmasini kitobat qildi. Shulardan bittasi Buxoro davlati xazinasida saqlanadi. Ikkinchisi fazilat nishonli to‘ra Sayyid Mir Siddiq-Hashmatning qo‘lida.

Abdullohbek xusravoniy buyruqqa ko‘ra Chahorjo‘y shahrida surgunda turganida ul viloyat hokimligi ul majid to‘raga topshirib qo‘yilgandi. Shu sababli ul kamol ahli qadrini biluvchi shohzoda necha bir mehribonlik va pul sarflash yo‘li bilan ancha vaqt ichida ul Qur’onni yozdirib olgan.

Uchinchisini Ostonaqul Qo'shbegi hiyla-nayrang vositasida qo'lga kiritgan.

Abdulloh Kotib fursat oralab va ayri-ayri vaqtarda “Daloil”dan ikki-uch nusxa bitgan. Yana ayrim do’stlar va yoronlar iltimosi hamda ba’zi bir hukumat egalari buyurtmasiga binoan zarurat bo‘lgani sababli “Salot”dan bitta nusxa yoki bitta “Hadis”ni kitobat qilgan. Chunki o’ta qanoatli kishi bo‘lgan. Biron narsa ishlash ilinjida bo‘lмаган. Bo‘lganida ко‘п narsa yozarmidi.

Katta boylikka ega hukumat boshliqlari shu sababdan bunday bebahosan'at asarlarini qo'liga kiritganlaridan iftixorga to'lib, boshi balandlik qilib yurgan edilar.

Qiyinchiliklar tortgani va ko‘p azob-uqubat chekkani natijasida ul yagona durdona nashavandlik dardiga mutbalo bo‘lib, o‘ta kamtarlik va hafsalasizlik bilan umr kechirardi. Keyinchalik hazrat zullijalol (Alloh)ning ne’matlar dasturxonidan ne pul va mol ul maqtov xislatliga yetib turgan esa, hech birini bekorga sarflamasdan va yo‘qotmasdan bola-chaqasi ta’minoti uchun ishlatajigan bo‘ldi.

Ammo doimiy yo‘qsillik va cho‘ntak bo‘m-bo‘shligiga qaramay, ehtiyojsizlik qoidasi va himmati balandlik yuzasidan o‘tkinchi dunyoning bo‘limg‘ur matohlariga qiyo boqish sira ham ko‘ngliga kelmasdi. Juda orastalik va loqaydlik bilan vaqtini tun-kun farog‘at va xurramlikda kechiradi. Ulug‘ va sharif kishilarning o‘tirish va yig‘iniga kirib qolsa, barchalari o‘ta rag‘bat bilan e’zoz-hurmati uchun bosh egardilar hamda ko‘ngli rozilagini yuqori darajada topishga tirishib, tashrifini e’tibor sarmoyasi, kirib kelishini faxr vositasi deb bilardilar.

Shu tariqa ellik yil hayot kechirib, hijriy 1332 yil da miroxo‘rlik va zakotchilik xizmatkorligi mansabida turganicha Buxoro shahrida dunyodan o‘tdi.

Bu “Daloil”ning bahosi o‘n ming tanga.

**Besh sura Salot va Shifo.** Har ikkalasi mazkur Abdullohbek Kotibning xati bilan bitilgan.

Daloili xayrot va Hizb un-nasr va Hizb ul-bahr bir jidda. Qori Mir Fayz Kotib Buxoriyning ukasi Qori Mir Rahmat Kotib xati bilan kitobat qilingan. Ularning har ikkalasi ham Abdullohbek Kotibning e’tiborli shogirdlaridan. Qori Mir Fayz Kotibning xushxatligi ukasinikidan kuchliroqdir. Yozuvining o‘xhashligi ustoziga juda yaqin. Bir necha vaqt Sayyid Amir Olim Bahodirxonning marhamati bilan faxrlar uyi Buxoroning maktablari Nozirligi bilan sarafrozlik topdi. Hozir bu mansabdan tushirilgan. Ammo shaxs sifatida barcha xalqqa yoqqan zot. Kitobiy xat bobida ham qo‘li uzun. Bu ikki aka-ukaning yozganlari kam sonli. Qachon bu hunarni amalga kiritib, davom ettirsalar, hech shubhasiz taniqli kotiblar va zamon xattotlari jumlasidan bo‘lishardi.

Bir necha vaqt Buxoro shahrida va unga qarashli yerlarda O‘rusiyaning kirib kelishi natijasida chop va litografiya kitoblari tarqalib, shu jihatdan xattotlarning bozori kasod, bu kabi san’atlarga aholining e’tiqodi aynib, kotiblar, xattotlar jadvalkash, lavvochlardan oz fursat ichida asar ham qolmagan darajaga yetdi. Bu singari san’atlar nazardan qolib, soha ahlidan har biri boshqa hunarmandchilik ketidan ketib, o‘zga ishlarni ixtiyor etdilar. Shu tariqa Buxoroda tayyorlanadigan kitoblar soni kundan-kunga kamayib bordi.

Ustiga-ustak boshqa mamlakatlarning san’atni tushunadigan tadbirkor savdogarlari Buxoroi sharif shahri sari yo‘l topib, oltin-zar zo‘ri bilan mo‘tabar qo‘lyozmalardan ko‘piga ega chiqdilar. Shu sababdan ko‘plab mumtoz kitoblar va go‘zal qo‘lyozma nusxalar Buxorodan tashqariga tashib ketilib, uzoq o‘lkalarda qo‘lma-qo‘l bo‘ldi.

Shuningdek, Gurgon boy-boyonidan va tolib ilm turkmanlardan bir nechtasi ilm o‘rganish maqsadida oltin to‘la xaltalarni qo‘ltiqlaganicha necha bir gerdayish va dabdaba bilan Buxoroga kirib keldilar. Ulardan ko‘pi faqat kitob savdosiga mukkasidan ketgan ucharlar bo‘lib, ayamay oltin, kumush sochganlaricha nuql mo‘tabar kitoblarni sotib olib, orqaga qaramay badar ketishdi. Chunonchi madrasalarning hujralari, ayniqsa Buxoroning mashhur madrasasi sanalmish

Ko‘kaldosh madrasasi hujralarini garchi shariat qonuni bo‘yicha hech ham olib-sotish mumkin bo‘lmasa-da, dastlab o‘sha bozorchilar tomonidan muomalaga tushib, narxi oshib bordi.

Shu bilan bir qatorda o‘sha kezlarini ilm va san’atdan sigir va eshak kabi butunlay bexabar, hatto ulardan ham battar bo‘lmish Turska va Qozon shaharlari aholisi Ulug‘ tangri inoyati bilan g‘aflat uyqusidan uyg‘onib va yalqovlik mastligidan hushyor tortib, to‘p-to‘p va guruh-guruh bo‘lib faxrlar uyi Buxoroga kelib, ilmu fazlu kamol kasb etmoq yo‘lida og‘ir qiyinchilik va o‘ta jahdu jadallikka mashg‘ul bo‘lib, “ilm o‘rganish uchun tirish” hadisi mazmunicha har biri nasib qilingan miqdorda ilm olamidan bahra oldilar va savodsiz holatda kelib, olim darajasiga ko‘tarilib ketdilar. G‘aflat ichra kelib, komil suratda qaytdilar. Bu toifa orasida ham boylar va o‘ziga to‘qlar ko‘p bo‘lib, ular ham ko‘proq go‘zal qo‘lyozma nusxalar va husnixatda bitilgan kitoblarni o‘zlashtirgan ilmlari ustiga-ustak qilib, tillo tarozusi bilan o‘lchab oldilar va o‘z diyorlariga eltdilar. Shu sababli ham ushbu kunlarda Qaroqrim va Qozon o‘lkalari ilmiya markazlariga to‘la va oliy diniy maskanlarga egadir.

Tan olib aytmoq lozimki, ul saodatmandlar Rusiya davlati tomonidan mag‘lub etilgan va qaram bo‘lishiga qaramay, ushbu ayyomda oydin din qoidalarini bajarish va amallarini amalga oshirib, hazrat payg‘ambarning – Allohning salovoti bo‘lsin – aytganlarini shu qadar mustahkam va o‘z joy-joyida ado etadilarki, undan ortig‘ini tasavvur qilish qiyindir. Mana uch yuz ellik yildan beri xristian davlati ular ustidan hukmronlik va farmon beruvchilik qilib kelishiga qaramay, ular tutgan Muhammadiylik qasri poydevoriga hech qanday putur yetmay va Ahmadiy dini asoslari hech bir vaziyatda sustlik topmay, aksincha, Rusiya bosib olgan davrdan beri jaholat paxtasini o‘z quloqlaridan olib tashladilar va loqaydlik libosini o‘z egnlaridan itqitib tashlab, o‘z ishlari tadoriki va taraqqiyoti o‘y-fikriga kirishdilar. Ilm va amal bobida eng yuksak cho‘qqilarga erishib, o‘z davlat va millatiga yuksalish va rivojlanish nurlari bilan ziynat berdilar.

Xullas ana shu kishilarning kitobga ishtiyoqmandligi sababli Buxoro shahrida har xil sohalar bo‘yicha juda ko‘p miqdorda mavjud bo‘lgan noyob kitoblar bora-bora Anqoning qo‘lga kirmas urug‘iga aylanib, o‘ta nodir bo‘lib qoldi. Aytish mumkinki, bu asr va zamonda Buxoro shahrining uch joyidan boshqa yerida o‘sha ilgari olib-sotilib turilgan durdek kitoblardan birontasi uchramaydi.

Mazkur uch joydan birinchisi hozirda foxira Buxoroning qozi-yul-quzzoti mansabida turgan mullo Burhoniddin sadrning kutubxonasi bo‘lib, bu boylikni u otasidan meros sifatida tekin qo‘lga kiritgan.

Ikkinchisi hidoyat va saodatga rafiq, sohibi tavfiq Hashmat taxallusli Sayyid Mir Siddiq To‘raning kutubxonasi bo‘lib, bu shohzoda o‘z kutubxonasiagi noyob qo‘lyozma nusxalarni ko‘p mashaqqat va ziyoda sa‘y-harakatlar bilan qo‘lga kiritish baxtiga tuyassar bo‘lgan.

Uchinchisi bu kamina Ziyo Sadrning kutubxonasiagi kitoblar bo‘lib, har biri dur-gavhar qutisining o‘zi sanalgan ul kitoblarni necha bir jigar qoni va oltinkumushlar sarflab qo‘lga kiritganmen va sinalar sandiqimga joylaganmen.

**Qozi Bayzoviy tafsiri. Birinchi daftar.** Qadimgi xattotlardan birining o‘ta darajada xushxatlik bilan sira xatosiz ko‘chirgan nusxasi.

Bu tafsirning bahosi ikki ming tanga.

**Mishkoti sharif. Noyob kitob.** Qur’oni y xati bilan ipak qog‘ozga bitilgan bu qadimi y kitob hech xatosiz ko‘chirilgan bo‘lib, u mavlono Masjidiy rahmatulloh ibn mullo Mansur al-Badaxshoni y xati bilan kitobat qilingan. Ul zot Amir Shohmurod Ma’sum G‘oziy ning fayzga to‘la zamonasining ulamosi boshlig‘i bo‘lganlar.

Shuningdek, bu asarni mavlono Sharif alayhurrahma o‘z ustozi mavlono Qosim alayhurrahma huzurida boshidan oxirigacha o‘qib chiqib, imtihondan o‘tgan. Hazrat ustozi alayhurrahma esa shogirdining mazkur imtihondan o‘tganini qayd etarkan, uni mavlono Sharif alahurrahmaga hadis ilmini o‘qitishi mumkinligi bo‘yicha yozib bergen “Ijozatnama”ga qo‘s himcha ravishda bitgan. Mazkur muqaddimadan so‘ng ushbu nomsiz roqim bu oliy bayonli kitob ta’rifida “durdek noyob” degan so‘zdan o‘zga nimani ham yoza olardi.

Hozirgi narxi yigirma ming tanga.

**Hidoyayi sharif ning ikkita jildi.** Shayxulislom Burhoniddin Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al-Marg‘inoniy al-Hanafiy (vafoti hijriy 593 sana ) asari. Mullo Siddiqjon Kotib Buxoriy xati bilan yozilgan.

Shu gap mashhurkim, Amiri Said laqabli Amir Haydar Bahodirxonning fayzga to‘la zamonida Buxoroi sharif shahrida Siddiqjon ismli nafar zabardast kotib faoliyat ko‘rsatgan ekan. Bittasini Siddiqjon Ishtixoniy Kuykiy va yana birini Siddiqjon Kufriy deb atasharkan. Bu ikki nafar kotib bir-biridan yaxshi bo‘lib, xattotlik bobida toq, xushxatlik sohasida mashhuri olamu ofoq ekanlar.

Ammo ushbu “Hidoyayi sharif”ni ko‘chirib yozgan Siddiqjon kotibning laqabi Kufriy bo‘lgan. Otasingning ismi Sodiqjon ekan. Yashash joyi va asl vatani Ko‘yi Daraxt guzari ekani uchun Siddiqjonnini “Ko‘yi Daraxtiy” nisbasi bilan ham atashgan.

Xullas Kufriy o‘z asrining mo‘tabar kotibi bo‘lib, kitobat sohasida o‘ziga xos tarz va maxsus yo‘nalishga egaki, yozganlari malohatda yetuk va nihoyatda ajibg‘aribdir. Ilgari bu yanglig‘ tarzda hech kim xat bitmagan. Demak bu yo‘nalish uning xos ixtirosi sanalib, shu sababli bu tarzni “Siddiqjon uslubi” deydilar. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha xat bituvchilar Siddiqjonnini o‘z ustozi hisoblaydilar. Xullas, Siddiqjon kitobat sohasida qo‘li baland sanalib, to‘g‘ri yozishlikda barmoq bilan sanarlik xattotlar qatorida turadi. Kecha-yu kunduz besh vaqt namoz hamda uyqu va ovqatlanish onlaridan tashqari biror vaqtini bekor o‘tkazmay, dunyoviy ishlarga berilmay, tamomi umrini kitobat sohasiga sarf qilgan. Shu tariqa har soha va turli fanlarga doir besh yuz dona kitobni o‘zining go‘zal xati bilan ko‘chirib yozgan. Shular jumlasidan biri ushbu oliy bayonli Hidoyayi sharifning ikkita daftari nusxalari bo‘lib, xattot uni “Bahodir” laqabli tengi yo‘q amir, ya’ni Sayyid Amir Nasrulloh ning taxtga chiqishi boshlarida Baqoxoja Sadrning topshirig‘i bilan o‘ta diqqat va ziynatli tarzda yozib, qo‘lyozma hoshiyasida “Kifoya” asarini ham to‘la holda kitobat qilgan.

Bu qo‘lyozmani yozish yuzasidan buyurtma bergen Baqoxoja Sadr o‘sha kezlarda foxira Buxoro shahrining muhtasiblik mansabiga mansub turgan bo‘lib, u Buxoroi Sharifning qozi-yul quzzoti qozi Abulhasanxojaning aziz farzandidir.

Bu qo‘lyozmaning yozib tugallanish sanasi bo‘yicha bir ta’rix bitilgan bo‘lib, u juda go‘zal bir tarzda yaratilgan.

Ta’rix qit’asi:

In	nusxa	ki	nazdi	ahli	ma'ni	ast,
Mavsuf		ba		husni		benihoya.
Az	piri		xirad			kardam:
Tahrir	che		dorad		in	Hidoya.
Ta'rix		raqam		namuda		gufto:

Tahriri Hidoyaash Kifoya.

Mazmuni:

Ma'ni	ahli	nazdida	bu	kitob,
"Cheksiz	husnli"			maqtałgan.
Aql	piridan		ayladim	savol.
"Bu	Hidoya		yozilishi	bobida,
Yozg'uvchisi	qay		sanani	bitgan?"
Dedi: yozgan "Hidoya"si "Kifoya".				

Bu dilga yoqar qo'lyozma nusxa nihoyatda go'zalligi bilan birga hech bir xatosiz va to'g'ri ham ko'chirilgan. Bu daraja jonga monand, hatto jondan ham yaxshiroq tarzdagi bu yanglig' husnixatli kitob endilikda sira bitilmasa kerak-ov. Bu sharif nusxa ham merosiy sanaladi. Bugungi kundagi bahosi yigirma ming tanga.

**Yana Hidoyaning ikkita daftari.** Ikki xil xatda bitilgan. Qadimiylar to'g'ri yozilgan nusxa. Bo'lak-bo'lak ustozlar tomonidan kitobat qilingan. Asar so'zlari to'g'ri yozilgan. Ul ayri-ayri nusxalarning ikkinchi daftari taniqli kotib mullo Hamdam Buxoriy xati bilan yozilgan. Xudoi taolo xohlasa, ul zotning sharhi holi zikri o'z o'rnida bayon etilajak. Bu qo'lyozma nusxa tashqi husnda unchalik bo'lmasa-da, lekin puxtalik yuzasidan dilga quvonch bag'ishlash darajasida kitobat qilingan. Narxi to'rt ming tanga.

**Mullo Ali Qorining "Sharhi muxtasar il-Viqoya" nomli asari.** Nur ustiga nurligi shukim, asar mazkur mullo Ali Qori alayhurrahmaning mutabarrik xati bilan ko'chirilgan. Bu asarning yaratilishi va kitobat qilinishi mashhur fozillardan sanalmish mullo Ali Qori tomonidan muhtaram Ka'bai muazzama harami ichida yuzaga kelgan. Chunonchi bu ish ul oliy bayonli kitob xotimasida ul saodatmand janobning mishkin raqamli qalami bilan aniq tarzda yozilib, bu narsa o'quvchiga ma'lum qilinib qo'yilibdi. Xudoga shukr, bu asar bizning mulkimiz bo'larkan, bahosi bobida ne derdik.

Mullo Abdulalining "Sharhi muxtasar il-Viqoya" asari. Mashhur kotib shayx Boyazid Bastomiyning muborak xati bilan ko'chirib yozilgan. Juda go'zal alfoz va ra'no tarzda mumtoz qur'oniy xati bilan ipak qog'oziga asl oltin suvi yogurtirilgan holda sira xatosiz bitilgan qo'lyozma. Mazkur xattot bu oliy bayonli kitobni ko'chirib yozishda o'ta shavq va to'liq zavq bilan ish tutgan.

Kamtarin kaminangiz Mullo Abdulalining "Sharhi muxtasar"idan bir xil tarh va bir xil usuldag'i uchta nusxani ko'rghanman. O'shalardan bir nusxasagina ushbu haqir qulingizning qo'lga kiritgan mulki sanaladi. Yana bu kitoblardan bir nechtasini zamondoshlar qo'lida ko'rdim. Ularning barchasi bir xil qog'oz, bir xil qalam va bir xil jadvalda yuzaga chiqqan edi. Ma'lum bo'lmoqdaki, mullo Abdulali o'ta

zabardast kotib bo‘lgan va ko‘plab kitoblar ko‘chirib yozganga o‘xshaydi. Bu qo‘lyozma nusxaning narxi besh ming tanga.

**Murqot. Sharhi Mishkot.** Sohib Murqot alayhurrahmaning tabarruk xati bilan ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxa. Chunonchi xotimada bu ma’noni ochiq ravishda yozib qo‘yanlar.

**Sharhi Tanvir al-absor.** Taniqli kotib va fozil sifatli xattot, hurmatga sazovor mullo Abdurahim xati bilan yozilgan. Kitobat usuli va xushxatlik sohasida tengi yo‘q kotib. Bu kitob o‘ta dilga yoqar va juda chiroyli bo‘lib, yana Xudo biladi-yu, una o‘xhashi bo‘lmasa kerak. Narxi o‘n ming tanga.

**Jome ar-rumuz , Sharhi muxtasar ul-Viqoya.** Mashhur kotib mullo Abdulloh Balxiy xati bilan bitilgan.

Amiri said, ya’ni Amir Haydar Bahodirxonning saodat alomatli zamonida husnixat sohasida biri-biridan yaxshiroq ikki nafar dongdor aka-uka kotiblar bo‘lishgan. Kattasining ismi mullo Abdulloh ekan. Kichkinasini mullo Rahmatulloh – Mavlaviy Jaliy deyisharkan. Bu ikki oliy zotli og‘o-inilar shaharlar onasi Balxdan foxira Buxoroga kelib, Mavlaviy Soqiy Balxiy alayhurrahmaning usuliga ergashib, bu borada boshqalardan chovgon to‘pini olib qochishgan. Taqlidni haqiqatga aylantirishgan. Bu fanda zamon yagonasi va davron durdonasiga aylanganlar. Bora-bora ish san’at ahlining g‘amxo‘ri Sayyid Amir Haydarning ul ikki nafar og‘o-iniga Arki Oliyda o‘z yonidan joy berish darajasiga yetib, ishslash joyi va maosh, oylik tayinlangan. Amir ularning yeb-ichish, kiyim-kechak va boshqa istaklarini bajarishni o‘z zimmasiga olib, barcha dunyoviy ehtiyojlar tashvishidan qutultirgan. Shu tufayli bu aka-ukalar o‘zi singarilar va yaqinlariga qaraganda ko‘p ustunlikka erishib, rohat va farog‘at bilan ul qutlug‘ kelajakli xusravning kitobat sohasidagi xizmatiga mashg‘ul bo‘lganlar.

Ushbu “Jome ar-rumuz” kitobi ul yagona kotibning shohlik buyrug‘iga binoan Oliy Arkda o‘ta go‘zal bir suratda kitobat qilib, ul saodat alomatli xusrav ishtirokidagi zamonning bir nechta olimlari va davronning zukko fozillarining o‘ta diqqat bilan tekshirushi ostida obdon to‘g‘rilangan va tuzatilgan holatda yaratgan kitobidir. Shu tufayli uning boshidan-oxirigacha biron ta xato va noqis o‘rin ko‘zga tashlanmaydi. Aftidan Mavlaviy Abdulloh Balxiyning zotidagi ilmiya quvvati mavlono Jaliydan ko‘proq bo‘lgan. Chunki ul janobning yozganlarini tuzatish va isloh etishga ehtiyoj kamroq seziladi. Ba’zida bizga notanish va noaniq tushunchalarni oydinlashtiruvchi hamda foyda beruvchi ta’birlar, antiqa izohlarni ishlatganki, bu narsa o‘z o‘rnida komil bir ustozning o‘quvchiga yordami va manfaatli ta’limi kabi tuyuladi. Xullas bu oliy bayonli kitob noyob duru gavhardir. Narxi yigirma ming tanga.

**Mutavval.** Bu kitob Sa’diddin at-Taftazoniy tomonidan mo‘tabar olim Sakkokiy Xorazmiyning Talxisi Miftoh asariga yozilgan sharh bo‘lib, noyob qo‘lyozma kitobdir.

Bu oliy xatli nusxaning narxi olti ming tanga.

**Favodi Boqiya.** Muallif xati bilan yozilgan. Muallifning ismi esa Shoh Husayn bin Sulton Yusuf. Asar benazir vazir Muhammad Boqiy Do‘rmon uchun

ta'lif qilingani sababli “Favodi Boqiya” deb nomlangan. Bu himmati uchun unga to qiyomat kunigacha Allohning rahmati bo'lsin.

**Amir Xusrav Dehlaviyning Xamsa asari.** Bu benazir amir na'tida mavlono Abdurahmon Jomiy alayhurrahma o'ta go'zal olqish bayti yozganlar. Amir Xusrav Dehlavi hijriy sana bo'yicha 920 yil da vafot etgan. Asar juda go'zal darajada kitobat qilingan. Qo'lyozma sahifalari hoshiyasida mavlaviy Jomiyning Xamsa asari yozilgan. Asl matn va hoshiyadagi yozuvda bironta xato nuqta ko'zga tashlanmaydi. Qo'lyozma Pir Husayn bin Pir Hasan ul-Kotib ash-Sheroziy xati bilan kitobat qilingan. Kotibga ofarinlar va ruhiga Haq rahmati bo'lsin. Narxi yigirma ming tanga.

**Nizomiy Ganjaviyning Xamsa asari.** Muallifning to'liq nomi Shayx Jamoliddin Yusuf bin al-Ganjaviy. Vafoti hijriy 596 yil da ro'y bergan. Qo'lyozma Mir Sayyid Muhammad al-Kotib tomonidan Boqiyxoja Jo'yboriy topshirig'iga binoan ko'chirilgan. Narxi o'n besh ming tanga.

**Mavlaviy Jomiyning Subhat il-abror asari.** Javohir raqamli zarrinqalam kotib, ya'ni zamon yagonasi va davron nodiri, jahon kotiblarining boshlig'i, o'z davri xattotlarining qaymog'i, olam xushnavislarining peshqadami, bani Odam xushxatlarining qiblesi, mumtoz xattotlar ustoz, xushnavislar a'losi, chaqqon qo'lli xattotlar tan bergen, nozik raqamli qalam egasi, san'atkor kotib, mohir so'zamol, qalam iqlimining hokimi, xat o'lkasining amiri, oydin kitobat sohasi asoschisi Mavlono Mir Ali Kotib Fathobodiy xati bilan bitilgan. Ul zotning yetukligi vasfini til bilan bayon etish yoki maqtovini barmoqlar orqali yozib yetkazish oson ish bo'lmay, bu o'rinda undan tiyinishga majbur holda so'z oti jilovini tavsif tarafdan oddiy bayon sari burmoqchiman. Mavlono Mir Ali Fathobodiy nisbasi bilan tanilgan buxorolik bu zot dong taratgan va e'tibor egasi bo'lmish xattot mavlono Zayniddin Mahmudning shogirdidir. Ul kishi esa, mishkin qalamli, Utorid raqamli, barchadan ustunlikda ikkinchi kotib mavlono Sulton Ali Mashhadiyning o'quvchisidir. Mavlono Sulton Ali Mashhadiy bu bobda osmondagи quyoshdek porlagan mavlono Azhardan ta'lim olgan. Mavlono Azhar xat sohasida nom taratgan kotib, jodu yozuvli mo'tabar xattot mavlono Ja'fardan tarbiyat topgan edi. Mazkur mavlono bo'lsa husnixat mashqini sehr qorishiqli va mo'jiza raqamli xattot, qalam ahlining mehribon otasi, olam xattotlari ustozining ustoz, nasta'liq qonun-qoidasi ixtirochisi, xushraqamlik maydonining sardori, qalam iqlimi Misrining azizi, bilimlar sohibi Xoja Mir Ali Tabriziyning shogirdidir. Ul oliyanob Amir Temur Guragon zamonasida yashab, nasta'liq qonunlari asoschisi bo'lgan. Shu jihatdan uzoq va yaqindagilar hamda turku tojiklar tilida Mir Ali nomi bilan mashhur va mazkur bo'lgan. Sulton Ali Mashhadiy Xoja Ali Tabriziy haqqida demish:

Nasxu      ta'liq      agar      xafiy      va      jaliy      ast,  
Voze'ulasli xoja Mir Ali ast.

Mazmuni:

Nasxu      ta'liq      gar      yashirin      yo      ochiqdir,  
Ixtirochisi xoja Mir Ali erur.

Mana bu baytlar ham Sulton Ali Mashhadiga mansub bo'lib, o'zining ul xojadan bashorat topgani borasidadir:

Dar	javoniy	ba	xat	bud	maylam,
Ishqi	xat	rond	az	mujjai	milam...
Banda	Sulton	Ali		g‘ulomi	Ali

Shuhrati xatti u zi nomi Ali ast.

Mazmuni:

Yoshlikda	maylim	xat	sari	edi,
Xat	ishqi	kiprik	qorasin	haydadi.
Banda	Sulton	Ali	Alining	qulidir,

Uning xati shuhrati Ali nomidandir.

Mavlono Mir Ali Kotib Fathobodiyning ham shogirdlari ko‘pdir. Hozir har biri bu sohada nom chiqargan va e’tibor topgan. Ulardan eng yetugi mas’ud tole sohibi Xoja Mahmud Siyovushoni bo‘lib, ko‘plab yozganlarida ismini “Ustoz” shaklida bitgan. Ayrim xattotlar aytishicha, uning xafiy usulda yozgan xati Mir Ali Kotibnikidan yaxshiroq ekan. Mir Ali Fathobodiyning o‘zi ham buni tan olib yozgan:

Xoja	Mahmud	on	ki	yakchande,	
Bud	shogirdi	in	faqiri	haqir.	
Bahri	ta’limi	u	dilam	xun	
To	xattash	yoft	surati	tahrir.	
Dar	haqqi	u	narafta	taqsire,	
Lek	u	ham	mekunad	taqsir.	
Har	che	xud	menavisad	az	bad,

Hamaro mekuad ba nomi faqir.

Mazmuni:

Bir	necha	vaqt	bu	faqiri	haqirning
Shogirdi	bo‘lgan		ul	xoja	Mahmudni
O‘qitaman	deb	bag‘rim		qon	bo‘lgandi.
Xati	tahrir	suratini	topsin	deb,	uning
Haqqida	hech	qo‘li	kaltalik		qilmadim.
Lekin	u	ham	aylar	xato,	kamchilik,
Yaxshi-yu		yomondan	nenikim		agar,

Barchasini mening nomimga urar.

Mir Ali Kotib Fathobodiy o‘ta diqqat bilan yoziladigan xushxatlikda ovozasini olam aro taratgan va bari xattotlar buni tan olishi bilan birga juda tez yozuvchi kotib ham edi. Bir kuni do‘sstaridan biri ul oliy janobdan Mufradot yozib berishni iltimos qilibdi. Shu zahoti qalamni qo‘lga olib, juda shoshilinch ravishda Alifdan to yigirma uch sarxatlik alifboni bir zumda yozib beribdi. Buni qarangki, o‘sanda birinchi sarxatning “bo” harfi tagidagi nuqta siyohi qurimasdan turib, Mufradotni tamomlagan ekan. Bu ish ul yaxshi nomli zotga xos xislat bo‘lgan.

Mir Ali Kotib Buxoroi sharifning Fathobod mavzesidan bo‘lib, “Shayxi olam” laqabi bilan tanilgan hazrat qutb il-aqtob shayx Sayfiddin Boxarziyning Alloh sirlarini muqaddas tutsin muridlardandir.

Bu dongdor, oliy zotli kotib shayboniy Abdulazizxon bin Ubaydullohxon zamonasida yashab, oltmisht uch yil davomida xayrli ishlar va yaxshi nom bilan umr o‘tkazgan. Hazrat Shayx ul-olam vafoti ta’rxi ul buzrukvor maqbarasining kirish

eshigi ustida bir ruboiy orqali bitilgan bo‘lib, hozir ham mavjuddir. Bu ta’rix ul kotibning gavhar yog‘diruvchi ta’bi mevasi bo‘lib, anbar tarovatli xati ham mazkur nodira ishli xattot qalamiga taalluqlidir. Kotiblar boshlig‘i sanalgan. Mir Ali Kotib Fathobodiy hijriy 951 yili olamdan o‘tgan va hazrat buzrukvor Shayxi olam maqbarasining sharqiy ro‘parasida dafn etilgan. Unga Allohning rahmati bo‘lsin. Ayrim fozillar bu vafot sanasiga bag‘ishlab ta’rixlar aytishgan.

On	faxri	fazoil,	sari	arbobi	hunarro,
Dar	voqeа	didam	ba	atvori	sutuda.
Guftam	ki:	torixi	vafoti	tu	che
Gufto	ki:	bigu	Mir	Ali	favt

Mazmuni:

Ul	fazllar	faxri,	hunar	ahli	boshlig‘ini,
Tushda	ko‘rdim	maqtovli	atvori	ilan	birga.
Dedim:	vafoting	sanasini		ne	deyin?
Dedi: degilkim, Mir Ali favt qildi.					

Ul janobning boshqa shogirdlari tarjimai holini, Xudo xohlasa, kitobning o‘z o‘rnida, bitta-bitta bayon qilaman.

**Xoja Hofiz Sheroyi ning “Devon”i.** Mishkin raqamli, Yoqut xislatli, qalam iqlimining podshohi, xushraqamlik binosining ustuni, ustunlik shaharlarining quyoshi, qalam arbobi manzumasining shohbayti, xushnavislik olami xattotlari mamlakatining jumlatilmulki, jahon kotiblari mumtozi, zamon xattotlari ustozi, xat o‘lkasining hukmroni mavlono Husayn Kashmiriy xati bilan yozilgan. Ul zot mashhur xattot Mir Imodning ustozi bo‘lgan.

Nihoyatda go‘zal kitobat qilingan kitobdir. Bu qo‘lyozma kitob malohati va nazokati vasfi bobida har qanday fasohatli til ojizlik qiladi. Anbar sirishtli bu nusxa katta bir baxtli davlat bo‘lib, ushbu risola bu yanglig‘ marhamat shukronasini ado etishga qodir emas, qalam tilining bu oliy ato madhida uzr so‘rashdan boshqa chorasi yo‘q. Har bir harfidan yana bir harf jamol ko‘rsatadi, har bir harfi aksidan bir quvonch nuri sochiladi. Har bir xati bo‘lak tarzda aqlu hushni oladi. Tong mahali charaqlab chiqqan quyoshkim, ko‘zni qamashtiradi.

Xattotning o‘tkir zehni tufayli she‘r ma’nolarining hech biriga putur yetmagan holda to‘g‘ri kitobat qilingan.

**Oxund Shayx tomonidan “Sharhi Mullo” bo‘yicha yaratilgan asar.** Bu mashhur asar mazkur oliy nasabli, qutblar qutbi, vosillar qaymog‘i, Haq yo‘li rahbarlarining ustozi, chuqur ilmli olimlarning eng olimi, so‘fiylar sulton, aqliya ilmining ma’dani, rabboniylutflarga yetishgan, subhoniy inoyatlarga erishgan va “Oxund Shayx Buxoriy” nomi bilan tanilgan mavlaviy Inoyatulloh xati bilan bitilgan. Mazkur mavlono zamon qutbi, zamon toliblari va olimlari boshlig‘i, soliklar va muxlislar yetakchisi, so‘fiylar va taqvodorlar sayyidi Mavlaviy Sharif Husayniy Alaviy ning yetuk shogirdlari jumlasidandir. Ul zot Subhonqulixon ashtarxoniy zamonida shuhrat bayrog‘ini aylanuvchi falak uzra yetkazgan edilar.

Mazkur Oxund Inoyatulloh shayx o‘ziga qarashli Dehi Shayx mavzesidan bo‘ladilar. Ko‘plab asarlar yozganlar. Abulfayzxon ashtarxoniyga zamondoshdir.

**Silsilat uz-zahab.** Sehr bayonli va shirin zabonli fozil Hoji Bahromning tabarruk xati bilan yozilgan. Xoja Bahrom “Shabiston” nomli asar muallifidir. Bu

asar ma'nolari latif iboralar bilan yaratilgan. Jumlalari yaxshi alpozda bir-biriga ulangan. Vasfi ta'rifga sig'maydi. "Mavlono Sharif Husayniy Alaviy bu mutabarrik nusxani mazkur Hoji Bahrom xizmatida o'rgangan va o'qib chiqqanlar. Shundan so'ng oliv bayonli kitobni Hoji mazkur mavlonoga tuhfa qilgan." Bu gaplar ushbu sharifa qo'lyozma nusxaning birinchi sahifasida mavlaviy Sharifning anbar isli raqami bilan ochiq-oydin yozilib va ma'lum qilinib turibdi. Allohi taoloning ne'matlariga shukrkim, u tengsiz bir dur-gavhardir.

**Jome ar-rumuz.** Oliy nasabli olim va fozil qozi Mullo Muhammad Salim xati bilan bitilgan. Ul zot Buxoro shahrining mashhur va e'tiborli faqiji bo'lib, Amir Haydar Bahodirxon zamonida bir nechta tumanlarning qozisi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Madrasa qurish baxtiga erishib, hozir ul madrasa "Qozi Salim madrasasi" nomi bilan tanilgan.

Ushbu tabarruk qo'lyozma nusxa ul saodatmandning xat va yozuvi bo'lib, olimligi tufayli asar ma'no va iboratlarini yaxshi tushunganidan aniq va ravshan holda ko'chirgan. Asardagi ramz ma'nolari dengizini go'yoki ko'zaga joylagan. Buning uchun esa xattotda ilmiy qudrat bo'lishi kerak. Uning bu ishi tahsinga sazovorligi jihatidan ul xattot uzra ming-ming rahmat yog'ilsin. Bu mutabarrik qo'lyozma kitob chindan ham beminnat hujjat va beminnat muallimdir. Qo'limda borligiga shukr.

**Yana bir Jome ar-rumuz.** Mashhur kotib, nodir xattot, so'z san'atida taniqli fozil va jahon kotiblari va davron xattotlari ustozi Muhammad Siddiq Ishtixoniy Ko'ykiy xati bilan kitobat qilingan. Yuqorida zikr etganimizdek, said amir, ya'ni amir Haydar Bahodirxon davrida ikki nafar mashhur kotib o'tgan – Ko'yi Daraxtiy nisbali Siddiqjon Kufriy va Siddiqjon Ishtixoniy-Ko'ykiy.

Siddiqjon Kufriy-Ko'yi Daraxtiyning zikri yuqoridagi "Hidoyayi" sharifning ikki daftari bobida aytib o'tildi.

Siddiqjon Ishtixoniy Ko'ykiy haqida gapirsak, ul kotib ham nihoyat darajada xushnavis xattot sanalib, bu sohada kunduz kuni osmonning qoq o'rtasida porlab turgan quyoshdek mashhurlik bayrog'ini hilpiratgan. Boshqa xattotlar uni ustozi o'rnida bilishgan. Necha martalab kitobat chog'i ko'zini ro'mol bilan boylab, yozilajak so'zlarni aytib turishgan. Ul asr va davron nodiri o'sha ko'zi bog'liq holda bitta betni o'ta tezlikda qoralab, chiroyli xatida bironta nuqtani tushirib qoldirmagan. Mistar chizig'idan qilcha ham tashqari chiqmagan. Bu g'ayri tabiiy qudrat faqat ung xos bo'lган. Lekin afsuski, shuncha fazilat va bilimga qaramasdan, savdoiy va biror joyda tek o'tirmaydigan kishi bo'lgani sababli yozganlari bir xil rang va yo'nalishda emas. Masalan, bironta kitob yozilishi kerak bo'lsa, uning bir nechta juzv ini qaysidir kishining hujrasida o'sha hujra egasining qalami va siyohi bilan yozgan. Boshqa bir juzvini yana bir kishining hovlisida o'sha hovli egasining qalam va siyohi vositasida kitobat qilgan va hakozo. Lekin qaysi qalamda yozmasin va qaysi rangda bitmasin, barchasi chiroyli chiqqan va barisi hushni o'g'irlovchi bo'lib, favqulodda yagonadir. Ustozlar ustozi, zamon allomasi Oxund mullo Hasan alayhurrahma var-rizvon ul xattotlar boshlig'ini oxundlik zamoni va Ko'kaltosh madrasasida dars berib yurgan paytlari mazkur madrasaning hujralaridan bittasiga qamab qo'yib, bir nechta kishini qo'riqlab turish ishiga buyurgan va fariza ishlarini

ado etishdan tashqari hech bir ish bahonasida tashqari chiqishiga yo‘l qo‘ymasliklarini tayinlab, ushbu “Jome ar-rumuz”ni o‘rnidan hech qo‘zg‘almasdan bitib tugallash topshirig‘ini bergan. Ul bechora yaqinlaridan ustun ustozning marhamati va taklifidan ongi qochib, mahbuslikda qafasdagi bulbul kabi bir xil qalam va siyoh bilan bir xil qog‘ozda ushbu “Jome ar-rumuz”ni o‘ta chiroyli bir shaklda yozib, hazrat ustoz dastidan qutulibdi. Bu mumtoz nusxa tugangach, o‘zining hazrat ustozi topshirig‘i bilan bir nechta boshqa bilimli shogirdlar hamrohligida yozganlarini diqqat va o‘tkir nazar vositasida to‘g‘rilab, xatolarini tuzatgan va buni qo‘limizdagi qo‘lyozma nusxa oxirida yozib qo‘yan. Yozilishicha, ulardan keyin esa hazrat Oxund Hasan alayhurrahma tekshiruvni nihoyasiga yetkazganlar. Barcha mavlonolar mavlosi [Oxund Hasan]—sirlari muqaddas bo‘lsin — butun umri davomida bu hikoyani aytib yurar va so‘ng “mendan keyin bu kabi noyob kitob qay bir odamning qo‘liga tusharkan” deya kuyunardilar. “Vo hasrato, bu orzuni o‘zim bilan tuproqqa olib ketarman” deya jonu dildan bu oliy bayonli kitobni avaylab-asrab yurardilar.

Bu ojiz roqim oliy zotli otam hayotidan so‘ng uzlatda yashab yurar ekanman, bir kuni Qori Akram ismli kishi kirib kelib, qo‘limga bitta kitob tutqazdi. Ochib ko‘rsam, Siddiq Ishtixoniy qalami bilan kitobat qilingan “Jome’ ur-rumuz” asari qo‘lyozmasi.

Shunda mavlooi mag‘furiy aytib yuruvchi hikoya esimga tushib “Allohi akbar” deb yubordim va darhol kitob xotimasiga nazar tashlab, hazrat Oxund alayhurrahmaning muhrini ko‘rdim. Ehtiyojsiz Allohi taologa shukrona keltirdim: Jumodi chand dodam, jon xaridam, Bano mezad, ajab arzon xaridam (Mazmuni: Bir necha jonsiz narsaga jon sotib oldim, Qarangki, yana ajab arzon sotib oldim) — deya arzimas bir necha tanga berib, egasini rozi qildim va ul gavhar qutisini yuragim sandig‘iga joyladim.

Har jihatdan tengsiz va o‘xhashi yo‘q bebafo qo‘lyozma. Bir xil qalam, rang va qog‘ozda yozilgan bu qo‘lyozmaning olam aro yagona kotibi uni fozillar sultonni, ulamoning hujjati “Amiri said” laqabi bilan tanilgan Sayyid Amir Haydar Bahodirxon — go‘ri nurga to‘lsin – buyrug‘iga binoan Buxoro Arkida o‘tirib, bir xil tarz va usulda o‘ta chiroyli yo‘sinda tahsin va ofaringa sazovor ravishda kitobat qilgan. Ammo tashqi bezakdan xolidir. Amiri said topshirig‘i bilan bu oliy janob va xalifa manzillik uchun kitobat qilingan barcha qo‘lyozmalar shunday yaratilgan. Buni boshqa o‘rinda ham aytib o‘tgan edim: Asl nozaninlar pardoz beruvchilar bezakidan xolidir, Ma’no husniga o‘sha rangin ma’nolarning o‘zi ziynatdir. Bu noyob qo‘lyozmaning narxi o‘n besh ming tanga.

**Aqoid.** Bu ham ul mashhur fozil Muhammad Siddiq Ishtixoniyning xati bilan bitilgan.

Narxi besh ming tanga.

**Qonunchai tib.** Bu qo‘lyozma ham ul nodira ishli, Utorid shiorli xattot Muhammad Siddiq Ishtixoniy tomonidan kitobat qilingan. Narxi besh ming tanga.

**Dastur il-iloji tib.** O‘ta go‘zal tarzdagi xati ipak qog‘oziga bitilgan. Jadvali toza tillo suvi bilan chizilgan. Tabobat fanining bilimdoni bo‘lmish xoqon Sayyid Subhonqulixonning topshirig‘i bilan sohibi e’tibor kotib Boqiy Muhammad bin

Bobo Ahmad Sovajiy tomonidan kitobat qilingan.  
Bu qo‘lyozma nusxaning narxi o‘n ming tanga.

**Shifo il-alili tib** ham “Dastur il-iloji tib” singari turli-tuman tashqi va ichki ziynat bilan bezangan. Shubhasiz ravishda tengi yo‘q qo‘lyozma nusxadir. Bu nusxa ham hoziq tabib Sayyid Subhonqulixon buyurtmasi asosida kitobat qilingan bo‘lishi kerak. Chunki boshqa podshohlar tomonidan bu yanglig‘ go‘zallik asboblari ishlatilgan va hushni o‘g‘irlash darajasida bezatilgan kitob tayyorlatish kam hollarda ro‘y bergan. Tag‘in Alloh biladi. Kitobat bobida tan olingen va husnixat sohasida shuhrat topgan Muhammad al-Obivardiyning xati bilan bitilgan. Uning narxi ham o‘n ming tanga.

**Tibbi Yusufiy.** Qo‘lyozma asar ham juda dilga yoqar va tengi yo‘q tarzda kitobat qilingan.  
Narxi besh ming tanga.

**Tibb un-nabi va Barr us-soata hamda bir nechta Tib risolalari.** Xati bag‘oyat darajada chiroqli va jonga ozuq beruvchi.  
Bahosi besh ming tanga.

**Majmuai rasoili hukamo.** Go‘zal bitilgan kitob va tengsiz yozilgan qo‘lyozma nusxa. Eski donishmandlardan biri hakimlarning risolalarini bir yerga yig‘ib, to‘plam tartib bergen bo‘lib, bu asarlar jon va ruhning o‘zginasidir. Kotibi chuqur bilimli olim ekanidan bu barcha risolalar ma’nosini yetuk suratda tushunib, tahrir qaydiga kiritgan. Xati juda pokiza. Boshidan-oxirigacha biror chalkash so‘z yozilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Kotibning zotiy bilimiga ofarin, o‘tkir zehniga tahsin. Kitobning narxi o‘n ming tanga.

**Saloti Mas’udiy.** Taniqli fozil, shariat shior, to‘la shuhrat egasi Qozi Mirzo Hidoyatullohning muborak xati bilan kitobat qilingan. Mirzo Hidoyatulloh kaminaning ona tomondan bobosining inisidir. Alarning ismi esa qozi Mirzo Karomatulloh mavlaviy bo‘ladi – Alloh sirlarini muqaddas tutsin.

Mazkur Mirzo Hidoyatulloh shuhrat topgan qozilar jumlasidan va xattotlarning eng mumtozi zumrasidan bo‘lib, shu sababli Amir Haydar Bahodirxon gohida osmon hashamatli saroyning inshonavislik vazifasi va ba’zida qozilik hukmini chiqaruvchilik mansabiga tayinlab turganlar.  
Qo‘lyozmaning narxi o‘n besh ming tanga.

**Nigoriston.** Muallifi mavlono Mo‘yin Juvayniy. Bu ham ona tomondan buvam Mirzo Karomatulloh mavlaviyning ukasi Mirzo Hidoyatulloh qozii marhumning tabarruk xati bilan kitobat qilingan. Bag‘oyat chiroqli va tengsiz darajada go‘zal bitilgan qo‘lyozma.

Narxi o‘n ikki ming tanga.

**Axloqi Muhsiniy.** Bu ham Mirzo Hidoyatulloh maxdum qozii marhumning tabarruk xati bilan yozilgan.  
Bahosi to‘rt ming tanga.

**Yana bir Axloqi Muhsiniy asari nusxasi.** Juda chiroqli qo‘lyozma. Eski kotiblardan bittasi tomonidan ipak qog‘oziga raqam qilingan, jadvali asl tillordan chizilgan noyob va oliy qo‘lyozma kitob.  
Bahosi yetti ming tanga.

**Turob Ali. Sharhi qozi.** Xatirchilik mudarris Umar maxdumning muborak xati bilan kitobat qilingan. Yuqorida ul kotib holi bayonini zikr qilib o‘tgandik. Kaminaning buyurtmasi bilan kitobat qilgandi. Bu ham Turob Alining ta’rifga va tavsifga ehtiyojsiz yozganlaridan sanaladi. Bahosi o‘n ming tanga.

**Sharhi Faroiz. Mir sayyid Sharif asari.** Zamon allomasi, davron Aflatuni, olimlarning Abu Ali Sinosi, muhaqqiqlar sultoni hazrat mavlono Mir sayyid Sharif qozining o‘z xati bilan yozilgan. Bu zot vasfida aytish mumkinki “Agar Faxr Roziy zamonasida bo‘lganida, undan faxr etib, ilmidan rozi bo‘lardi. Sa’diddin Taftazoniy va Sharif Jurjoniy kabilar xizmatiga jondan chokarlik etardi. Abu Ali Sino uning tibdagi yo‘rig‘idan bahramand bo‘lardi.”

Bu oliy bayonli kitob ul qozi janoblari tomonidan tasnif etilish va yozilish sharafini topgan. Va bu sharif qo‘lyozma boshdan-oxirigacha ul saodatdan xoli emas. U shaksiz Allohi taoladan yetgan bir tuhfadir. Merosiy mulk bo‘lgan va tasarrufimda turgan bu bebaho dur, tengsiz gavhar uchun Xudoga cheksiz shukrlar.

**Kimyoyi saodat.** Benazir bir kitob, o‘xhashi yo‘q qo‘lyozma nusxa, qimmatli tuhfa va dilga yoqar hadya. Juda chiroli xat bilan ko‘chirilgan.

**Yana bir Kimyoyi saodat.** Bu ham shu usulda kitobat qilingan va go‘zallikda bir-biridan qolishmaydi.

Ammo birinchisining tashqi chiroyi ikkinchisidan ko‘proq. Ikkinchisining esa ichki bezagi birinchisidan ziyyodaroq. Birinchisi taniqli kotib...tomonidan kitobat qilingan. Narxi yigirma ming tanga.

Ikkinchisi Muhammad Sayyidxoja bin Shohsayyidxoja Nasafiy tomonidan Amir Nasrulloh Bahodirxon buyrug‘iga binoan ko‘chirib yozilgan. Buning ham narxi o‘sha bahoda. Ya’ni yigirma ming tanga. Risolai istiora. Mullo Asomiddin. Mavlaviy Sodiq. Har uchta kitob ham bir jild ichiga olingan.

“Risolai istiora”si kotiblar ustozি, olivjanob xattot Qozi Abdujabbor Urgutiy xati bilan yozilgan. Ul janobning tarjimai holini ushbu kitobimizda bergenmiz.

“Mullo Asomiddin” va “Mavlaviy Sodiq” asarlarini sohibi iqtidor Mullo Avaz Boqiy Urgutiy ko‘chirib yozgan. Bu xattot mazkur Qozi Abdujabborning shogirdi va qarindoshlaridan bo‘ladi. Xat ta’limi va ilmlar tahsilini o‘sha janobdan olgan va xatni o‘z ustoziga ergashib yozgan. Lekin xati xom va yetukligi butun emas. Narxi olti ming tanga.

**Mavlaviy Jomiy asari sanalmish uchta Devon.** Juda chiroli yozilgan va e’zoz qilishga arzirli qadimiyo qo‘lyozma nusxalar. Uchtasining narxi besh ming tanga.

**Bobo Soib [Tabriziy] . Devon.** Tengsiz qo‘lyozma va nazokat bilan ko‘chirilgan benazir devon. Boshdan-oyoq bezak bilan yasangan. Xushxatligi ortig‘ini tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada go‘zal. Lafziy va ma’naviy chiroyi o‘ta yuksak martabada. Shaksiz durlar qutisi, anbar isli xati tarovatda tengsiz. Jon gavhari desak arziydi, ruh quvvati desak loyiqidir. Narxi yigirma ming tanga.

**Sa'diy Kulliyoti.** Juda qadimiy va mukarram qo'lyozma nusxa. Fayzining nurlari quyosh kabi taralgan. Kaminaning qo'lida Sheroz Hofizining – go'ri nurga to'lsin – muborak xati bilan yozilgan [Amir Xusravning] “Xamsa” kitobi bor bo'lib, uning tavsifi ushbu tazkiramda quyiroqda zikr etilajak.

Aytish kerakki, bu fayz unvonli “Devon” xatining o'xshashligi ul mutabarrik “Xamsa”ga juda ko‘p. Shu sababli bu “Devon” ham ul fazilatli va valiylik belgili janob, ya’ni Hofiz Sheraziyning xati bo‘lsamikin? Yoki hazrat shayx Sa'diy yozushi bilan kitobat qilinganmikin?

Ul din sharafi sanalmish baxtli shahid Muslihiddin Sa'diy Sheraziy hijriy 736 yilning rajab oyida vafot etgan.

**Sa'diyning yana bir Kulliyot Devoni.** So‘z gavharlari bilan liq to‘la bu “Devon” ichki va tashqi ziynatli tarzdagi bir qo'lyozma nusxdadir. Bu dilga yoqar majmuada to‘plangan she’rlar go‘zal husnixatda, asl oltin suvli jadvallar ichiga olingan va atroflariga tillo kukunlari sepilgan suratda a’lo ipak qog‘oziga bitilgan. Sarlavhalari ham o‘ta go‘zal yozilgan. Bunday bezakli asar yaratishga Moniy va Behzoddan o‘zga kishi qodir emas. Xati Mir Ali va Mir Imodning yozganlaridan bo‘lak biron xattot yoza olmaslik darajasida. Biroq aytish lozimki, xati yuqorida aytganimiz “Bobo Soib Devon”i qo'lyozmasidan qolishadi. Lekin boshqa ziynatlari undan ortig‘ini tasavvur qilish mumkin bo‘lmaydigan darajadadir. Kotibining ismi kaminaning esida aniq qolmagan. Bu kabi holning sababini aytadigan bo‘lsam, ushbu tazkirada nomlari ko‘rsatilyotgan qo'lyozma kitoblarimning barisi Buxorodadir. Ushbu “Tazkirat ul-xattotin”ning qoralamasni Qarshi shahrida qoziligidan payti yozilgan. Mana o‘ttiz yildan buyon uzluksiz ravishda qanoti qayrilgan kamina tayinlangan buyruq bo‘yicha mazkur shaharda qozilik mansabi poyiga bog‘langanmen.

Eslatish lozimki, shu davr mobaynida bir necha bor qozilik mansabidan tushirilib va yana o‘sha yer qoziligiga ko‘tarilib turdim. Ana shu kezlar mazkur sababdan ikki-uch martaba Buxoroga kelish va asl vatanimni ko‘rish sharafiga erishsam-da, kitoblarimni ko‘zdan kechirish imkonini topmadim. Ya’ni o‘sha ozgina fursat ichida ham bu mansab panjasidan qutula olmay va ozor beruvchi bu uqubatli bo‘yintiriq qulflarini ocha olmay qiynalib, bu notavon bandaning joni va ruhu ravoni sanalgan ul kitoblarimdan ayroliq alamida ezilgandim. O‘sha paytlari kitoblarimdan ko‘p qismini mutolaa qilish bahridan ham mahrum qolgandim. Qo'lyozma kitoblarimning barisi begona va uzoq shahar va qishloqlarda, safarlarim chog‘i butunlay xavf-xatar ostida bo‘lib turdi. Moviy falakning bu yanglig‘ javru jafosi sababli kitoblarim uchun qanchalik kuyunsam-da, ular nomi va kotiblari ismini biron daftarga qayd eta olmadim. Endi bilib turibmanki, hayhot “men nima xayolda bo‘lganmanu, falak ne xayolda”. Hozir ko‘pgina kitoblarimning nomi esimga kelmayapti. Kotiblari ismi ham g‘ira-shira yodimga tushadi. Shuning uchun juda aniq esimda qolganlari isminigina yozmoqdaman. Ikkilanib turgan kotiblar nomini esa ochiq qoldiraman. Xudoi taolo ushbu satrlar qoralovchisiga biror osudalikni nasib qilsa, kitoblarimni o‘qish sharafiga muyassar etsa, o‘sha ochiq qolgan o‘rinlarni to‘ldirib va kotiblar ismlarini yozib qo‘yajakmen. Bu noyob kitobning narxi o‘ttiz ming tanga.

**Sa'diyning yana bir to'plami.** U ham yaxshi qo'lyozma nusxa va diltortar to'plam. Bu qadimiy qo'lyozma bizga ta'zimi lozim ulamo va fuzaloning qo'llarida turgan tabarruk majmuadir.

Narxi besh ming tanga.

**Nozim masnaviysi.** Chaqqon qo'lli, sehr raqamli Qarobek xattotning xati bilan yozilgan. Bu xattot shikasta xat turida yozuvchi kotiblarning e'tiborli ustozi bo'lган. Shikasta uslubi paydo bo'lganidan beri bu yo'naliishda hech bir kishi Qorabek kabi mohir bo'lмаган desak yanglishmaymiz. Mazkur sohada peshqadam bo'lib, el aro dong taratgan. Shikasta xat saroyidagi ustundir.

Narxi besh ming tanga.

**Hotifiyning "Temurnoma" asari.** Tengi yo'q kitob, o'xshashi yo'q qo'lyozma nusxa. Juda xushxat yozilgan. Ichki va tashqi bezaklarga o'ta boyligi bilan yuqorida aytganimiz Bobo Soib Tabriziy devoni qo'lyozmasiga o'xshaydi. Eslatganimiz Sa'diy Sheroziy to'plamiga tengdir. Kotibi mavlono G'iyo'siddin Jomiy bo'lib, u el aro nom taratgan xattotdir.

Narxi o'n besh ming tanga.

**Maslak ul-mutaqqin.** E'tiborli kotib va Yoqut xislatli xattot Mirzo Ismatuloh munshiy xati bilan kitobat qilingan. Ul benazir dabirning yozgan qit'alari yosh va keksaning qo'lida husnixatligiga dalildir.

Bu asar qo'lyozmasini Said Amir – go'ri nurga to'lsin – buyrug'iga ko'ra kitobat qilgan. Endi shuning o'zidan ortiq tavsif va ta'rifiqa ehtiyoj yo'q. Narxi o'n besh ming tanga.

**Mullo Muhammad biy Afg'onning Qasoidi Afg'on asari qo'lyozmasi.** Afg'on taxallusli bu shoir Amiri Said zamonida Nurota tumani hokimi bo'lган. Juda yaxshi bir qo'lyozma.

Narxi uch ming tanga.

**Hidayayi sharif.** Ikkita daftar. Taniqli kotib, oliy nasabli zot, zamonasining e'tibor topgan xattoti, taqvodor olim, yomondan tiyinuvchi parhezkor, yaxshi axloqli, a'lo sifatlar to'plami qozi mullo Abdulvahhob maxdum xati bilan kitobat qilingan. Ul zot bir umr nokomlik burchagida o'ta zuhdu taqvo bilan yashadi. Shar'iy ilmlarni o'qitishda tanho va sidqu safoda yagona ravishda xotirjamlik bilan umr kechirdi. Dunyoviy boylik va ayshu huzur kabi kasofatlar bilan bulg'anmadni, kecha-yu kunduz vaqtini yaratganga toat-ibodat va diniy ilmlarni o'qitish, shar'iy kitoblarni ko'chirib yozish bilan o'tkazdi. Xat sohasida usta bo'lib, yozganlari aql-hushni o'g'irlardi. Qur'oniy xatida qo'li barcha kotiblarnikidan ustun edi. Xatti shikasta uslubida ham mohir va tanho bo'lib, Mirzo Bedil va Nozim asarlarini ko'chirib yozardi. Maxdumga "Labi Hovuz" aholisi murid bo'lib, umuman, Buxorda barcha kishilar ul zotga e'tiqod qo'lini bergen edilar. Hech bir inson u ega bo'lган kamolga yetishmagan edi. Shu sababli asr xoqoni Sayyid Amir Abdulahad Bahodirxon xusravona yod etish orqali boshini osmon qadar ko'tarib, Kitob shahri qoziligiga tayinladi. Dunyoning barcha ne'matlaridan tiyingan ul parhezkor noiloj ul shaharning qoziligi mansabini o'z zimmasiga olib, ozgina fursat adolat bilan qozilik qildi.

Yozganlari uch xil yo'naliishda ham ko'pdir. Barchasi tahsinga loyiq va shuhratga sazovor bo'lib, taxminan uch yuz adad qo'lyozma nusxani o'zidan yodgor qoldirdi.

Alloh rahmat qilsin.  
Narxi ming tanga.

Masnavii Nozim ham mazkur qozi kitobat qilgan qo‘lyozma nusxalardan sanaladi.

**Muazzam avliyolar, kirom ulamolar, muhtaram amirlarning mutabarrik yozishmalari.** Ular jumlasidan biri oliy nasabli, qutblar qutbi, xosu avom murojaat etadigan muhtaram zot va Jom ahlining peshvosi, ulug‘lar iftixori, asl laqabi Imodiddin, kuniyasi Nuriddin, taniqli ismi Abdurahmon bo‘lmish Jomiy – Allah sirlarini aziz tutsin – hazratlarining maktublari sanaladi. Ul majid ulug‘vorning otalari Ahmad bin Muhammad Dashtiy. Dasht Isafahon tumanlaridan birining nomi. Onalari Imom Muhammad Shayboniy avlodidan sanaladi. Otasi Isfahondan Jom viloyatining Xarjerd qishlog‘iga ko‘chib kelib, o‘sha yerda vatan tutganicha, oilalik va bola-chaqalik bo‘lgan. Abdurahmon Jomiy hazratlari mazkur qishloqda dunyoga kelgan. Oliy zotli otasi tomonidan qutblar qutbi, hazrat vahobning tanlagani, ishq jomi bodasining masti, hazrat Zinda fil Ahmad Jomiy janoblariga ulanadi.

Ayrim mualliflar Jomiy hazratlarini Sulton Abu Said Mirzo Guragoniy zamonida yashagan desa, boshqa mualliflar Sulton Husayn Mirzo Guragonning baxtli zamonida ayyom va zamon sahifasiga ziynat bag‘ishlagan deydilar. Sakson bir yil umr kechirdilar. Yozgan kitoblari qirq to‘rtta asarni tashkil etadi. Bu son abjad hisobida “Kos” so‘zi harflariga teng “Jom” so‘zi harflariga to‘g‘ri keladi. Ruhining bulbuli hijriy 898 yilning 18 muharram oyida tan qafasidan uchib chiqib, Sidrat il-muntahoda maqom tutdi.

Shuningdek, ma’rifat bilguvchisi, ilohiy sirlar egasi, Allah yo‘li maslaki soliki, valiylik falakining qutbi, hidoyat osmonining quyoshi, hazrat iloh saroyi maqbali, asror va roz olamining yuksak uchuvchi lochini, hidoyat panoh, haqiqatlardan ogoh, yaxshi kishilar sayyidi hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror – sirlari muqaddas – qalamiga mansub yozishmalar. Ul zot hazrat mavlono Yoqub Charxiydan ta’lim olganlar. Mazkur mavlono esa e’tiqod qo‘li bilan sohibi moqomot, oliy himmat Xoja Bahouddin Naqshbandiyning etagini tutganlar.

Ul yaxshilar qaymog‘i, ya’ni xoja Ahrorning podshohlar iltifotiga ko‘pam e’tibori bo‘lmay, “Dunyo oxirat dalasidir” mazmuni bo‘yicha oydin ko‘nglining mayli ko‘proq dehqonchilik sari ekan va qo‘lga kiritgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini fuqaro va miskin kishilarga ularshib berarkan.

Hazrat Xoja Ahror ulug‘lik yoshiga yetib, hijriy 895 yil da Samarqandning Kamongaron qishlog‘ida bu tashvishli dunyodan ko‘chib, rohat-farog‘at uyi sari ketganlar. Sohibi tadbir amiri kabir Amir Alisher Navoiy ul sohibi karomatning vafoti ta’rixini juda yaxshi aytib, bu sanani abjad hisobida “Xuldi barin” so‘zlaridan topganlar.

**Yana hazrat Shoh Qosim Anvorning yozishmalari.** Ul zotning ismi Mo‘iniddin Ali bo‘lib, Tabrizning Surxob qishlog‘idan chiqqanlar. Uch yoshida payti yaratguvchi egamning oliy inoyati nasimi ahvoli manglayi sari esib, Xudoitao lo fayzlari bog‘ining ul yangi ochilgan g‘unchasini kamol darajasiga yetkazgan. Allohdan ingan bu ichki ilm tufayli qol ahli peshvosi va hol arbobi muqtadosi bo‘lganlar.

**Yana hazrat Mir Abdulavval bin Sayyid Murtazoning yozishmalari.** Ul zot Xoja Ahrorning zamondoshi va kuyovi bo‘lganlar.

**Yana mamlakat olishlik yo‘lining yo‘lboshchisi, podshohlik maslaklari soliki, saltanat taxtiga bezak beruvchi, xalifalik taxtining o‘rindig‘ini ziynatlovchi, egallash ilmining amiri, zebu ziynatlik Sulton Husayn Mirzo ibn Mansur Mirzo ibn amirzoda Boyqaro ibn Umarshayx Mirzo ibn Amir Temur Go‘ragonning maktublari.** Ul sulton Abulqosim Bobur Mirzo ibn Boysunqur Mirzoning vafotidan so‘ng hijriy 861 (sakkiz yuz oltmis birinchi) yili Xuroson shaharlarining onasi sanalgan Marvi Shohijahon shahrida shohlik taxtiga o‘tirdi va u yerdan dorussaltana Hirotgta borib qaror topdi. Sharif vaqtini ulamo va fuzaloning kimiyo asarli suhbatida o‘tkazdi. Bu toifaga imkon doirasida, hatto undan ham ziyoda tarzda mehribonlik va g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. Azim olimlar va mukarram fozillar suhbatli fayzidan bahramand bo‘lib, bu bobda shuhrat topdi va nom chiqarib, xalq nazdida maqbul bo‘ldi. O‘zi ham she’rlar bitib, kitoblar tasnif qildi. Asarlari jumlasdan biri “Majolis ul-ushshoq” kitobidir. Hech shuhbasiz bu asar as’hob o‘tirishi sham’i va do‘stlar yig‘ini chirog‘idir. Ul a’lo hazratning umri 69 yil bo‘ldi. O‘ttiz sakkiz yil saltanat yurgizdi. Yigirma yil davomida falaj kasali iskanjasida qiyinalib, harakat qilishga kuch-madori bo‘lmay yurdi. Bodg‘is viloyatiga qarashli Bobo Ilohiy mavzesida hijriy 911 yili qazo farroshi davlati saroyini oxirat dorulmulki tomon eltdi.

**Yana xalq sadri va vaziri, Nizom ul-mulk val-millata vad-din, mulk va davlat hamda sulonlar ishonchi, sadrlik mansabi o‘rindig‘ini bezovchi, vazirlilik martbasini ziynatlovchi amiri kabir va Ali siyratlik Mir Alisherning maktublari.**

Ul qilich va qalam sohibining asl vatani ... 876 yili sadrlik mansabi va vazirlilik masnadiga o‘tirdi. Ul so‘z iqlimining xusravi vazirlik vazifasini juda mahorat bilan uddalab, xalq tabaqalarining ilm olishi, foziarning bemalol ishlashi borasida ko‘p sa’y-harakatlar qildi. Zamondoshlari bir ovozdan tahsin aytdilar.

Amir kabirning “Xamsa” asari turku tojik va uzoq-yaqin xalqlarga ma’qul va yurtlar aro mashhur bo‘ldi.

Ul zot ijodiga mansub “Majolis un-nafois” fazl kuyovlarining bezagi va kamol kelinchaklari hullasidir. Hijriy 906 yili qazo taftishchisi hayot daftaridan alarning mashhur nomini o‘chirib, o‘lim kundaligi uzra yozib qo‘ydi. Saltanatlar uyi Hirotdagi o‘zi qurdirgan masjid yonida dafn etilgan. Alarga Allohning rahmati bo‘lsin.

Alqissa ko‘p fayzlar xazinasi bo‘lgan va g‘aybiya nurlar majmuasi sanalgan mazkur to‘plam ul nomi tilga olinganlarning sharifa yozishmalari va muborak xatlari va tabarruk maktublari yig‘masi bo‘lib, har biri mualliflar tomonidan o‘z zamonasidagi qaysidir bir shaxsga yuborilgan. Ul tabarruk xatlarni esa ul baxt yakunli ayyomda ilmparvar Amir (Alisher) topshirig‘iga binoan xuddi o‘sha yozganlari holicha bir to‘plam sahifalariga ko‘chirganlar. Allohga ne’matlari uchun sharaflar bo‘lsin. Ularning har biri jon javhari va ruhu ravonga oziqdir.

**Muhiy il-tatamma va Mullo Ahmadning Aqoidga sharhi.** Har ikkala asar ham ulamonining ustozи, fuzaloning mumtozi so‘fiylar sayyidi, tasavvuf olimlari hujjati, diniy qonunlarning barchasidan xabardor, aqliy va naqliy ilmlarni egallagan

hazrat Mavlo otamning – Allohning rahmati bo‘lsin – qalamiga mansubdir. Ammo ularning tartibga solinish va bir yerga yig‘ilishi Mavlo vafotidan so‘ng ushbu satrlar muallifi tomonidan amalga oshdi. Chunki ul janobning oliy bayonli mazkur asarlari kitoblarning hoshiyasiga yozilgan va boshqa nusxalariga qaraganda ancha tafovut va xatolarga ega edi. Hatto Mavloning bu asarlari boshqa mualliflarga, aksincha o‘zgalarning asarlari Mavloga nisbat berilgandi. Qisqa vaqt ichida aynan Mavlo yozganlarini ulardan ajratib olib, bir yerga yig‘dim va tartib berdim. Boshiga xutba va xotima so‘zlarini ham yozdim. Tokim til zaxmidan daxlsiz va davron parokandaligidan butun, o‘zlashtiruvchilar xurujidan omon qolgay. O‘scha hoshiyadagi mazkur yozuvlarim bo‘lsa, demak bu asarlar otamniki, bo‘lmasa o‘zgalarnikidir.

**Mullo Abdulg‘afur. Hoshiya sharhi.** Borligi g‘animat va nodir qo‘lyozma. Narxi uch ming tanga.

**Mullo Asomiddinning Hoshiyaga sharhi.** Oliy va kamyob qo‘lyozma kitob Narxi uch ming tanga.

**Me’roj ul-fahum sharhi Sullam al-ulum.** Mashhur kotib va taniqli xattot mullo Qilichniyoq Labiobiy xati bilan kitobat qilingan. Ul zabardast, nodira ishli kotib Amir Nasrulloh Bahodirxonning fayzli zamonda yashagan xattot sanaladi. Xushxatlikda dong taratgan. Ko‘chirib yozgan kitoblari yuztadan oshadi. Bu qo‘lyozmasining narxi besh ming tanga.

**Qasidai burda.** Soliklar va oriflar boshlig‘i, Alloh taoloning kalomi hofizi qori Abdurahim al-Qurro ut-Torobiy rahmatullohi alayhning muborak xati bilan ko‘chirilgan. Ul zot xalifa Sayyid Jaloliddin janoblarining azim o‘rinbosari va izzatli as‘hobidandir. Yillar davomida ul xalifa janoblari xizmatida umr kechirib, ko‘p futuhotlar sohibi bo‘lgan. Mazkur qori foxira Buxoroda qur‘on ta’limi va hadis hamda shotabiy qiroati darsiga mashg‘ul bo‘lgan azizlardan biridir. Hamisha bu toifa ulug‘lari singari o‘zini oshnovu begonadan bekitiqcha tutardi. Hazrat oxund domla Hasan va Buxoro a’لامi eshon Sultonxojaning – ularga Allohning rahmati bo‘lsin – shogirdlaridan edilar. Ul janobning tasnif qilgan asarlaridan biri “Hujjat il-voqe’in” kitobidir. Yana birlari “Tuhfai xoniy”, “Sharhi fiqhi Kaydoniy”, “Sharhi qasidai Bonti Saod” bo‘lib, tag‘in o‘zgalari kitobat qilgan “Daloili xayrot”, “Ad’iya”, “Salot”dir va Kalomi sharifdan sakson to‘rt nusxa ko‘chirib yozganlar. Taqvodor bo‘lish bilan birga g‘ayri oddiy hodisalardan xabardor edilar.

Sayyid Muzaffar Bahodirxonning o‘g‘li sayyid Nosirxon o‘zining “Tuhfat il-zoyirin” nomli kitobida shunday yozgan: Ancha yillar ul janobning huzurida turdim va ul zotdan sodir bo‘lgan hayratga soluvchi odatdan tashqari hodisani ko‘rdim. Aniqrog‘i ul zot bashoratidan so‘ng o‘scha kechasi sarvari anbiyoning chehralarini mushohada etish davlatiga muyassar bo‘ldim. Qarangki, tong otguncha bir emas, ikki marta bunday sharafga musharraf bo‘ldim va tongda pirim xizmatiga yetishgach, musofaha qilib, tabrikladilar.”

Qori Abdurahim yetmish yoshida hijriy 1322 yili Haq rahmatiga yetishdilar. Talli Behishtiyonda xalifa Husayn qabtolida mangu orom topganlar.

Mazkur murshid sayyid Jaloliddin maxdum Sayyid Amir Ali Hamadoniyning – sirlari muqaddas bo‘lsin – avlodidan sanaladi. Romitan tumanidagi Qasri Kamol qishlog‘ida tavallud topib, aziz otasi qoshida kamol kasb etganlar va xalifa Oshur

Muhammad xizmatida uni mukammallik darajasiga yetkazganlar. Amir Nasrulloh Bahodirxon chaqirig‘iga binoan Buxoro shahriga kelib, hidoyat panoqli hazrat shayx Habibulloh xonaqohida istiqomat qilganlar. Ul xonaqoh yonidan Xiyobon ko‘chasi o‘tadi. Eshonning sharif nasabi sayyid Jaloliddin ibn sayyid Mir Olim ibn sayyid Amir Zakariyo bin Amir Ne’matulloh ibn sayyid Amir Rahmatulloh ibn sayyid Amir Bahodir ibn sayyid Amir A’so ibn sayyid Amir al-Boriy ibn sayyid Amir Shodiy ibn sayyid Amir Hoji ibn sayyid Amir Yusuf ibn sayyid Amir Baraka ibn sayyid Amir Ahmad ibn sayyid Amir Ali Hamadoniy tarzidadir.

Jaloliddin maxdum Buxoroga kelib kirgach, amir Nasrulloh Bahodirxonning ixlos va e’tiqodi kundan-kunga ul eshonga nisbatan orta borgan. O’sha kezlari amir Nasrulloh Bahodir Shahrisabz viloyatini zabit etishga qaror qilgan davr bo‘lib, chunki, shu paytgacha uning jasur lashkar va cheksiz askari ancha tayyorgarlik ko‘rib, bir necha yil davomida ul viloyatga qo‘shin tortib kelayotgan esa-da, haligacha Shahrisabz fathi tuyassar bo‘lmay turgandi. Bu gal qubbatilxazro dilkash Kesh shahrini egallah uchun yurish qilish oldidan kechasi sayyid Jaloliddin maxdumning xonaqohiga borib, ul janobning qo‘lini o‘pish sharafiga musharraf bo‘larkan, shundan so‘ng muddaosini izhor etadi va shu borada ma’naviy ko‘mak va yordam so‘raydi. Bu gapni eshitgan maxdum marhamat qilib, Siz uchun Allohdan Shahrisabzni tiladik, qabul va yetishuv darajasini topdi, ammo sharti shukim, yomonlik ro‘y bermagay, deydi. Amir Bahodirxon bu bashoratdan so‘ng ne chandon gul-gul ochilib, darhol Shahrisabz sari jo‘naydi va salgina hamladayoq Shahrisabzni qo‘lga kiritadi. Eshondan “Amir Bahodir” laqabini oladi.

Ul janobning vafoti hijriy 1286 yili ro‘y bergen. Imom Hafzi Kabir ning – Alloh undan rozi bo‘lsin – xonaqohi tomonidagi hovuz ro‘parasida orom topgan.

Alarning o‘g‘li xalifa Aloiddindir. Oliy zotli otasining o‘rbosari, ilmi hol va qol ilmlari majmuasi. Alarning arab tilida yozgan “Hujjat il-solikin” nomli kitobi bor. Otasidan keyin xalq irshodi va hidoyati o‘rindig‘iga o‘tirdi. Hijriy 1298 yili Haq qabtoliga yetishib, otasi yoniga qo‘sildi. O’sha ayyomda xalifa Jaloliddin eshonning ikkinchi o‘g‘li bo‘lmish “Eshon qozi” laqabi bilan tanilgan sayyid Sultonxoja Xuzor shahrining qozi-yul quzzoti edi. Ukasining vafoti borasidagi shum hodisa xabarini eshitgan zahoti zamon sultonining ruxsatsiz va ijozatisiz qozilik libosidan voz kechib, Buxoro shahriga kirib keldi va irshod va hidoyat o‘rindig‘ini bezovchi bo‘ldi. Ammo maosh va xonaqohi yo‘q edi. Muborak oy yetishgach, Mehtar Orif masjidida e’tikof o‘tirish uchun davron sultonidan ruxsat so‘radi. Ammo qilgan haligi ishi sababli bu ikki sulton orasida kudurat ro‘y bergen bo‘lib, sayyid Amir Muzaffar Bahodirxon dastlab ijozat bermay “avval o‘zining karomatini namoyon etsin va shundan so‘nggina ul masjidda toat-ibodatga mashg‘ul bo‘lsin” deya talab qila boshladi. Ammo amir o‘sha gapidan so‘ng ro‘za sababli kunduzi uyquga ketadi-yu o‘sha zahotiyoy birdan o‘rnidan sakrab turadi va haligi dag‘dag‘asidan qaytib, e’tikofga ruxsat beradi. Bundan ham ajabrog‘i shu bo‘ladiki, bu xabar ul murshidga yetib kelmasdan oldin muridlariga “pardalarni to‘g‘rilang” deb buyurgan edilar. Muridlar esa ikki sulton orasida qo‘rqib va hayron holatda qolib turgan edilar. O‘sha orada sultonning zohiriyl ijozati ham yetib, shundan so‘ng ul oftob holiga daxl qilinmay, Sultonxoja avomu xos va barcha toifa xalqning murshidiga aylandilar.

Ilmi hol va qol ilmining to‘plami edilar. Turli xil fanlarda o‘ta mahoratli bo‘lganlar. Bir gal zamon Sharihi, davron Junaydi, asrimiz allomasi, zamonamiz Anvariysi, Sarir Balxiy taxallusi bilan tanilgan, ya’ni G‘ijduvon qozisi Qozi mullo Abdulvohid sadrdan “Miroti xayol” (Xayol oynasi) kitobini so‘raganlar. Shunda qaysidir bir sabab bilan hayallah ro‘y berib, “Miroti xayol” kitobi yetib kelavermagach, ikkinchi marta xat yozib, unda ushbu baytni izhor etganlar:

Yakdame g‘ofil zi “Miroti xayol”at nishastam,  
Lek tarsam dam zanam girdi g‘ubori oynaro.

Mazmuni:

Biror dam “Xayol oyna”ngdan g‘ofil o‘tirdim, lek qo‘rqaman Nafasim bilan oynang cheti changini arta olmasmen deb.

Eshon Sultonxoja murshidning vafoti hijriy 1319 yili ro‘y berdi. Oliy zotli otasi va katta akasi qabtolida dafn etilgan. Allohning rahmati bo‘lsin.

Xalifa Jaloliddin maxdumning uchinchi farzandi sayyid Qamariddin bo‘ladilar. Kasira futuhotlar va riyozat sohibidir. Yillar davomida xalqni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etish ishiga mashg‘ul bo‘lganlar. O‘scha hijriy 1319 yilda ul zot ham marhum bo‘lib, otasi va aka-ukalari yoniga dafn qilindi. Qozi qori Sabohiddinxonning otasi edi. Benazir fozil Mirzo A’zim Munshiy Bo‘stoniy Somiy bu vafot yuzasidan bir ta’rix aytgan.

**Takmilat ul-havoshi.** Ulamo ustozি, fuzalo mumtozi, qozilar qozisi mavlono Sharif Xoja Buxoriy alayhurrahma yozgan asarlardan biri. Ul janobning fazilat va kamoloti haddan ziyod. O‘n sakkiz yoshida hol takmili va dars kitoblari tahsilini mukammal qilib, ulug‘ otasi xizmatida yetuklik darajasiga erishgach, e’tikof o‘tirish niyatida hazrat “Xojai jahon” ravzasiga borgan va “Eshon pir” nomi bilan tanilgan Xalifa Muhammad Amin Dahbediyning nurli nazariga manzur bo‘lgan. O‘scha ravzada kamolotning a’lo darajasiga erishib, so‘ng ul hazratning saodatlidi qabtolida Dahbed qishlog‘iga borgan va tarbiyatlar topgach, alarning ijozati bilan Buxoroga kelgan.

Amir Nasrulloh Bahodirxon oliy zotli otasi davlati ayyomida ul janob, ya’ni Sharif Xoja Buxoriyning diniya darslari markaziga borib, nahv, aqoiddan ta’lim olgan. Buxoro sultanati taxtiga chiqqandan keyin esa, foxira Buxoroning qozi-yul quzzotlik mansabini mavlaviylik va oxundlik va Qulbobo Ko‘kaltosh madrasasi darslarini olib borishligi ustiga qo‘shib berib, o‘zi qatori olimlar orasida sarafroz etgan. Ul zot vafoti ro‘y bergen hijriy 1261 yil ga qadar shu mansablarda turarkan, haq o‘lim taqozosicha oliy zotli otasi hamda “Eshon ustoz” laqabi bilan tanilgan bobosi Hodixoja shayxulislom yoniga vosil bo‘ldi.

**Risolai isboti vojib.** Mavlono Sharif [al-Husayniy] alayhurrahma qalamiga mansub asar bo‘lib, ul sirlari muqaddas janobning sharif xati bilan kitobat qilingan. Ul janobning tavalludi hijriy 946 yil i ro‘y bergen. Ota tomonidan oliy nasabi hazrat Imam Muhammad Hanafiyaga borib ulanadi. Ona tarafdan amir Oqil Kermoniyga yetishadi. E’tiqod-irodat bo‘yicha esa “Hazrati Azizon” laqabi bilan tanilgan hazrat Olimshayx Azizonga va hazrat shayx Fathulloh va hazrat xoja Ismoil va mavlono Kamoliddin shayxga ulanadi. Barchalariga Allohning rahmati bo‘lsin.

Zohiriyl ilmda shogirdlik nisbati Mavlaviy Qosim va mavlono Yusuf Qorabog‘iy ga yetadi.

Amir Abdulazizzon bin Nadr Muhammadxon ashtarxoniy Mavlono Sharif janoblariga ko‘p e’tiqod qo‘ygan edi.

Yozgan asarlari ichidan “Hujjat il-zokirin” va “Tuhfat ul-solikin” mashhurdir. Bulardan birinchisi Jahriya suluki bo‘yicha yaratilgan. Ikkinchisi Naqshbandiyaning Xafiya tariqatida yozilgan. Yana boshqa kitoblari ham maqtov bayoniga muhtoj emas.

Mavlono Sharifning vafoti hijriy 1109 yil i “Xoja Alam rason” guzarida ro‘y berib, o‘sha yerda orom topdi. Endilikda bu yer “Mavlaviy Sharif guzari” deb ataladi.

Hazrat oxund Inoyatulloh shayx ul janob qo‘lida o‘qigan shogirdlaridan bo‘ladi. Barchasini Alloh rahmat qilsin.

**Sharhi Viqoya.** Olimlar sayyidi, taqvodorlar hujjati, ulug‘lar samarasi, azim zotlar mevasi, sayyidlar nabirasi, oliv nasabli sohib Mavlono Abdullohxoja Husayniy Alaviy janoblarining tabarruk xati bilan kitobat qilingan. Ul zot mazkur hazrat mavlono Sharif Husayniy Alaviyning to‘ng‘ich va yetuk o‘g‘li bo‘ladi. Zohiriyl va ma’naviy ta’limni buzrukvor otasi qoshida o‘zlashtirgan. Xattotlik sohasida ham tengsiz. Xatni o‘ta chiroqli tarzda bitadi. Ushbu “Sharhi Viqoya” ham o‘sha jumladan sanaladi. Bu saodat qorishiqli qo‘lyozmaning tashqi va ichki go‘zalligi sharh va bayondan tashqari. Xudoga shukr bu mulkim bebahodur gavhardir.

**Kanz il-ibod fi sharhi avrod.** Xudo bergen tuhfa va shaksiz katta boylik. Chiroyli xati tengsiz. A’lo navli ipak qog‘oziga ziynat baxsh etish darajasida bitilib, jadvali asl oltin suvi bilan va lavhi o‘ta go‘zal suratda chizilgan. Xattoti kotiblar raisi Muhammad Said. Ul zot payg‘ambar sulolasini avlodidan sanalmish mavlono Asomiddinxoja Husayniy Alaviy bin mavlono Abdullohxoja Husayniy bin mavlono Sharif Husayniy xonardonidandir. Bularning ismi yuqorida zikr etilgandi. Ul valiylik osmoni oyi va sohibi hidoyat xojazoda yozuvlari muattar ushbu hoshiyada bitilgan. Yozganlari aziz otasi xatiga juda ham o‘xshashdir. Bu tabarruk kitobga egaligimni katta baxt va buyuk ne’mat sanayman. Bahosi yigirma ming tanga.

**Miftoh ul-jinon.** Xattoti Muhammad Said Kotib bin Mirzo Muhammad al-Buxoriy. Jonga baravar bu kitob ko‘p jihatdan ichki va tashqi nafosatga ega bo‘lib, husnixatda tengsizdir. Jadval va qog‘ozi qatori boshqa afzalliklari tufayli haligi “Kanz il-ibod” nusxasidan yaxshiroq ko‘rinmoqda. Uning kamina mulki sharofati katta bir saodatdir. Bu qo‘lyozma nusxaning narxi ham yigirma ming tanga.

**Manosik ul-haj.** Juda go‘zal qo‘lyozma. Ziynati jilosini tengsiz. Zikri yuqorida aytganimiz “Kanz il-ibod” va “Miftoh il-jinon” dan keyin kelayotgan esa-da, ammo husn jihatidan ulardan oldin turadi. Mashhur xattot Xandon Kotib xati bilan kitobat qilingan. Bu qo‘lyozmani ko‘rganning aqli shoshadi va hayrati oshadi. Bu ham faxr etishim darajasidagi mulkiy kitoblarimdan sanaladi. Qo‘lyozma ichki va tashqi chiroydan tashqari yana bir sharofatga ega – u baytulloh va payg‘ambar ravzasi ichiga ham kirib chiqqan. Chunki Mavlo otamning mo‘tabar xodimlaridan sanalgan mullo Mirjon ismli bir kishi islom haji sharafiga musharraf bo‘lganida, bu tabarruk

qo‘lyozmani o‘zi bilan birga olib borgan va ushbu saodatga musharraf etgan. Narxi yigirma ming tanga.

**Risolai qozi Tulak.** Qozi Tulak Nadr Muhammadxon ashtarxoniyning davlati ayyomida Balx shahrida qozilik mansabida turgan. U hijriy 1048 yil i vafot etgan. Balx shahrida dafn qilingan. Juda go‘zal xat bilan bitilgan foydali risoladir. Narxi besh ming tanga.

**Tanbeh il-g‘ofilin.** Benazir munshiy va chaqqon qalamli, Yoqut xislatli xattot Mirzo Sharif Munshiy xati bilan bitilgan. Mazkur Mirzo fazilat nishonli, “Amiri Said” laqabli amir Haydar Bahodirxonning xurram zamonida osmon qadarli saroyda inshonavislik mansabida turgan. Bu sharif qo‘lyozma nusxa ul shoh buyrug‘i bo‘yicha juda dilga yoqar tarzda kitobat qilingan. Beqiyos go‘zallikka ega. Narxi yigirma besh ming tanga.

**Sharhi shariat il-islom.** O‘sha yuqorida ko‘rsatib o‘tganimiz “Kanz il-ibod”, “Miftoh il-jinon” va “Tanbeh il-g‘ofilin” qo‘lyozmalari go‘zalligidagi nusxa bo‘lib, tengi yo‘q darajada kitobat qilingan. Xati, qog‘ozi va jadval tortilishi-yu ziynati jihatidan tahsinga sazovor. Bunaqa go‘zal qo‘lyozma kitoblar kam yaratiladi. Narxi yigirma ming tanga.

**Fatovii Durr il-muxtor.** Olimlar sultonni, fozillar hujjati, so‘filar qaymog‘i, mutasavviflar boshlig‘i, suluk yo‘li hodysi, islom faxri, ulug‘lar iftixori, fazilat iqlimining taxtda o‘tiruvchisi, Buxoro olimlari va fozillarining sayyidlik o‘rindig‘i sohibi nigin, barcha katta-kichik tan oluvchi rahmatlik Eshon Sultonxoja A’lam xati bilan yozilgan. Ul janobning ulug‘vor otasi Mavlaviy Abdullohxoja qozikalon va shayxulislom bo‘lganlar. Ulug‘vor bobosi Mavlaviy Ubaydullohxoja ham otababolari singari nasldan-nasl, avloddan-avlod Buxorodagi shayxulislomlikning oliy mansabida turganlar. Hamisha Qulbobo Ko‘kaltosh madrasasi oxundligi, sharif shaharning a’lamligi va shayxulislomlik mansabi bu taniqli toifaning zoti bilan ziynat topib kelgan. Bu firqaning nisbati Jo‘ybor xojalariga borib taqaladi. Eshon Sultonxonxoja a’lam Amir Nasrulloh Bahodirxon zamonida a’lamlik va Masjidi Kalonda xatiblik mansabida turib, Govkushon madrasasida dars bergenlar. Barcha ilmlarda yakto va tamomi fanlarda tengsiz, xususan, fatvonavislikda qo‘li ustunlik qilardi. Qiroat ilmida hushni olish darajasidagi tovushi va usuli bor edi. Alarning arjumand farzandi Qozixon maxdum sadr Buxoro raisligi mansabiga mansub turgan. She’riyat sohasida esa taxallusi “Jur’at” bo‘lgan. Baqoxoja shayxulislom mazkur maxdumning dilband o‘g‘li bo‘ladilar. Ilgari Buxoroning barcha mansablarida faoliyat ko‘rsatganlar – masalan raislik, mufti askar, qozikalonlik kabi. Endilikda esa shayxulislomlik bilan sarafrozlik topib, azaliy saodat tufayli islom hajini ado etish davlatiga ham erishib, katta yoshga kirganida ilohiy rahmat qabtoliga yetishdi. Ul oliy maqomli zotning Orifxoja Sadr ismli o‘g‘li bo‘lib, hozir mufti askarlik vazifasida turibdi. Hazrat otam fatvo ta’limini ul tengsiz a’lamga topshirganlar. Barchalariga Allohning rahmati bo‘lsin.

Bu kitobning ham mening mulkim ekani shukrlarga munosibdir. Narxi o‘n olti ming tanga.

**Faroiz.** Nasabi ulug‘, qutblar qutbi, so‘fiylar rahbari va taqvodorlar sarvari Xoja Asomiddin Shayxulislom Samarqandiyning muborak xati bilan kitobat qilingan. Ul zot bu tabarruk qo‘lyozmani o‘zining mishkin raqamli qalami bilan

kitobat qilgan bo‘lib, tez xiromli qalamim bu shayxulislom mahoratini madh etishdan ojiz qolib turibdi. Bu mulkim ham bir noyob dur-gavhardir. Shayxulislom. Talvih. Yaxshi qo‘lyozma. Narxi besh ming tanga.

**Xarputiy. Sharhi qasida.** Yana boshqa sharhlar bilan birga bir jidda kitobat qilingan. Maxdum Panjshanbagiy laqabi bilan mashhur kotibning xati. Ul xattot hazrat Mavloiy otamning navisandalaridan bo‘lib, tas’hih va tahrir qilganlari ko‘p. Chiroyli xatli qo‘lyozma.

Narxi o‘n ming tanga.

**Mavlaviy Hasanning Aqoidga sharhi.** Bu qo‘lyozma o‘z ravishiga ega mashhur xattot Mullo Abdulloh Kotib xati bilan kitobat qilingan. Qo‘lyozma hoshiyasida “Qul Ahmad”ning kitobini to‘la yozgan. Mullo Abdulloh Kotib xatining chiroyi bu yerda yana ko‘proq darajada namoyon bo‘lgan. Narxi besh ming tanga.

**Aqoidga Mavlaviy Hasanning yana bir sharhi.** Taniqli kotib va xattotlar boshlig‘i Mullo Sayyid Ahmad Buxoriy xati bilan yozilgan. Bu kotibimiz Amir Muzaffar Bahodirxon davrida shuhrat bayrog‘ini hilpiratgan edi. Xati uslubi Hamdam Maxdum Kotibga o‘xshaydi va qozi mullo Abduljabbor tarziga ham yaqinligi bor. Buxoro shahrining dongdor kotiblaridan Hazrat Mavloiyning shogirdlaridan. Lekin ul janobning muborak ko‘ngli undan bir sabab ila og‘rinib, buning alomati namoyon bo‘ldi: yoshlik payti vafot topdi. Juda yaxshi qo‘lyozma, nihoyatda ko‘ngilga yoqar. Narxi o‘n ming tanga.

**Matni ishboh.** Mavlono ibn Najimning – sirlari muqaddas bo‘lsin – muborak xati bilan yozilgan. Bu ilmi ko‘p xattot Imom Temurtoshning – Allohnинг rahmati bo‘lsin – shogirdlaridan bo‘lganlar. Ul janobning asl nomi Ibrohim ibn Muhammad bin Najim, laqabi Najim al-Misriy al-Hanafiy bo‘lib, hijriy 970 yil da vafot etganlar. Matole il-mirot. Sharhi Daloil il-xayrot. Mashhur kotib mullo Eshonxoja Kotib Buxoriy xati bilan bitilgan. Buxoroning taniqli xattotlaridan. Narxi o‘n ming tanga.

**Sharhi ishboh. Chalabiy: Sharhi Viqoya.** Har ikkala kitob eng go‘zal qo‘lyozmadir. Har ikkalasi ham bir xil xat va bir xil ravishda bir xil qog‘ozga bitilgan. Qirqimi ham bir xil.. Kotibi jahon aro mashhur Hoji Abdulvohid bin shayx Zohid Lohuriy. Lekin har ikkala kitob alohida jildga joylangan. Ikkilasi ham yozushi va go‘zalligi jihatidan bir-biridan qilcha ham farq qilmaydi. Biri jon bo‘lsa, ikkinchisi ruhu ravondir. Bu gaplarim hech mubolag‘asiz vijdonan aytilmoqda. Har birining narxi yigirma ming tangadan.

**Qozi Muborakshoh. Silm sharhi.** Asr yagonasi va xattotlar ustozি Qozi mullo Abdujabbor Urgutiy xati bilan kitobat qilingan. Tahriri Iso maxdum muftiga mansub. Tahsil ayyomida har ikkalasi hamdars va jonajon do‘st bo‘lishgan. Darslarni takmiliga yetkazish payti tavsifda ulardan qolishmaydigan Inoyatulloh maxdum sudur “ikkidan uch yaxshidir” masaliga ko‘ra uchinchi kishi bo‘lib oraga kiribdi va bir kecha-kunduzda uchovi bitta “Muxtasar” kitobini ko‘chirib yozib bitkazishibdi. Alarga Allohnинг rahmati bo‘lsin. Ushbu tazkiramning boshqa yerida ham bu voqeani yozgan edim, qaytariq

bo‘libdiga yo‘yilmasin.  
Bu kitob narxi yigirma ming tanga.

**Sharhi Fiqhi akbar.** Olimlar olimi, fozillar afzali Qozkalon Tahti Minoriy nisbasi bilan tanilgan mavlono Inoyatulloh Mavlaviyning muborak xati bilan bitilgan. Ul zot ilmlar uyi Buxoroi sharifning yetuk ulamosidan va bu latif shaharning maxdumzodalaridan bo‘lib, barcha ilmlarda mohir edi. Jannat makonli amir Haydar Bahodirxonning fayzli zamoni ulamosining mashhurlaridan sanalib, azim lutflar ko‘rgan ko‘yi amir Bahodirxonning ustozи sifatida boshqalarga qaraganda ko‘p imtiyozga ega ekan. Amir Bahodir laqabli Nasrullohning sultanati ayyomida Ko‘kaltosh va Mir Asadiy madrasasida mudarrislik qilgan. Ko‘p risola va sharhlar tasnif etgan. Hijriy 1273 yili foniy olam bilan xayrashib, Imom Bakr Homid mozorining sharqiy janub tomonida dafn etilgan. O‘scha hijriy 1273 yili Oxund domla Hasan alayhurrahma va rizvon shu sharif mozorda uch tanob oraliqda mazkur qozi yonida orom topganlar. Ul zot hazrat Mavloioyning ustozidirlar. Narxi yetti ming tanga.

**Mujariboti Hoji Solih.** Kotiblar ajoyibi, qalam as’hobining nodiri Mullo Siddiqjon Ishtixoniy xati bilan kitobat qilingan. Bu mashhur kotibning tarjimai holini bundan oldin o‘z o‘rnida mufassal yozgan edik. Narxi besh ming tanga.

**Masnavii sharif.** Latif bir qo‘lyozma bo‘lib, maqtovi ta’rif va tavsifga sig‘maydi. Afzalliklari soni xayol doirasidan tashqaridir. Bezaklari aqlni mahv etadi. Tasvirini yozay desa qalam tili lol qotadi. Olti daftardan iborat bu totli masnaviy ma’nolari kabi qo‘lyozmasi ham bir gavhardir. Kotibi Muhammad Siddiq bin Muhammad Sodiq ismli zabardast xattotdir. Quvvat va qudrati “bizdan keyin biz yaratgan yodgorliklarga qaraysizlar” hadisi mazmunini ushbu bitgan qo‘lyozmasi namoyon qilib turibdi. Ichki va tashqi ziynati tengsiz. Mening mulkim ekanining o‘zi bir mo‘jiza va katta baxtdir. Ammo nukta-hikmat biluvchi o‘quvchilarimiz kotibi haqida yanglish fikrda bo‘lmashinlar. Muhammad Sodiq kotib “Masnaviy”ning bu sharif nusxasini har ikkalasi ham o‘zgacha ravishda yozuvchi va mashhur bo‘lgan Siddiqjon Kufriy Ko‘yi Daraxtiy va Siddiqjon Ko‘ykiyga qaraganda boshqacha tarzda bitgan. Narxi o‘ttiz ming tanga.

**Bedilning Nukot, Devon va Qasidalari.** Kotiblar pahlavoni, xattotlar kuchlisi, insho fanida mohir Fozil Devona xati bilan kitobat qilingan. Ul zot bu sharofat belgili diyorning mashhur kotiblaridan bo‘lgan. Buxoro hukmdorlari amir Said Haydar va amir Nasrulloh Bahodirxonning fayzli zamonda shuhrat bayrog‘ini yuqori ko‘tarib, qalandarlik libosida ‘Mozori Mujarrad Darvozasi’ning tashqarisida yolg‘iz yashagan va o‘scha sababli Mirzo Abdulqodir Bedilga tabiatan e’tiqod qo‘yib, hamisha ul zotning asarlarini ko‘chirib yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Ittifoqan Amir Said Haydar zamonasida Hinduston o‘lkasining savdogar ahlidan biri Buxoroga kelgan va yonida Mirzo Bedil asarlaridan tashkil topgan kitob bo‘lib, muallif, ya’ni Abdulqodir Bedil qo‘li bilan yozilgan ekan. Biroq bu yozuvlar nuqtasiz va shikastada bitilgani sababli birona odam o‘qishga qodir bo‘lman. Mazkur amir bu g‘aroyib qo‘lyozmani qo‘lga kiritish istagiga tushgan. Lekin hind savdogari hech bir jihatdan bu taklifga rozilik bermagan. O‘rtaga shafelar tushsa-da,

foyda chiqmagan. Shunda amir uni ko‘chirtirib yozish baxtini topishdan ham xursand bo‘lajagini bildirgan. Ammo bu ish ikki yilga cho‘zilajagi va kitob egasi bu muddatgacha chidab tura olmasligi masalasi yuzaga chiqqan. Bo‘lmasa, kitobni juzvlarga bo‘lib, har birini bir xattotga berib yozdirishni ham aytishgan. Hindistonlik savdogar kitobni bo‘laklashga rozilik bermagan. Buxoroda to‘xtab turish muddatini cho‘zishini iltimos qilib, uni zo‘rg‘a qirq kun qilib belgilashgan. Shu qisqa vaqt ichida esa bu yanglig‘ ulkan kitobni ko‘chirib yozish og‘ir ishligi ayon bo‘lib, bundan foyda chiqmasligi barchani qattiq o‘yga toliqtirgan va bu voqeani podshohga arz qilishgan. Ilmparvar Amir Kabirning ishtiyoyqmandligi yana ham ortib, bu xizmatni qisqa vaqt ichida kim uddalay olajagi va shunday mohir mas’uliyatni bo‘yniga olishi borasida jar chaqirishlarini buyurgan. Shohanshohlik tomonidan ming dona qizil tillo, libos va boshqa ne’matlar berilishi ham uqtirilgan. Lekin hech bir xattotdan sado chiqmagan.

Bu paytda Fozil Devona Mozor darvozasi tashqarisidagi Gulzor mavzesida ekan. Bu pahlavon tiynatli va dev simmatli, tog‘ kelbatli va quturgan fil sifatli devona saroyda hozir bo‘libdi va bu xatarli ishni bo‘yniga olib, farmonni bajarishini bildiribdi. Saroyda to‘plangan barcha xattot va boshqalar kishilar bajarilishi qiyin bo‘lgan bu ish borasida pahlavon bildirgan gapdan hayron va sarson holatda qolishibdi va buni ul javonmardning telbaligi va jununiga yo‘yishibdi.

Alqissa, ul mardona fozil va farzona oqil xalq va davlat fotihasini olgach, to‘plamni qo‘ltiqlab, doimiy turar joyi bo‘lmish fayz osorli mozor yo‘lidagi Gulzor mavzesiga qarab yo‘lga tushibdi. Yashaydigan kulbasiga kelib, uzuksiz qirq kun qilinadigan toat-ibodat, ya’ni e’tikofdan oldin qilinadigan niyat so‘zlarini aytibdi.

Qirq kun ichida hech bir zot hujra eshigini ochmabdi. Va’dalangan kun yetib kelib, qirq kunlik muhlat vaqtı tugabdi. Bu kunni “qani nima bo‘lar ekan” deya nafasini ichiga yutganicha kutib o‘tirgan podshoh va falak qadarli saroy ahli hamda Buxoro shahri xalqining katta-yu kichigi, oqilu devonasi erta tong mahali mozor devori-yu darvozasi ustiga chiqib olib, devonaning yo‘lini poylashdi. Ul Allah sheri esa, ichiga ulkan hajmli ikkita kitob solingan xurjinni ot ustiga ortgan holda jilovni ushlab kelmoqda edi. Bu holni ko‘rgan xalq orasida g‘ala-g‘ovur ko‘tarildi. Erkagu ayol, uzoq va yaqin yerlar odamlari barchasi devona tomon talpindilar. Tom va yo‘l, o‘tarlik yerlar tomoshatalab olomonga to‘lib ketdi. Bu ajoyib belgili xabarni adolat yoyguvchi sultonga yetkazganlarida, nomdor hukmdor qalbi zavq-shavqqa to‘lib, intizorlik bilan yo‘lga termulganicha va qulog‘ini xushxabar sari ding tutganicha pahlavonni kutib olishga shoshilarkan, ul ofoq nodirining Toq ostida turganini ko‘rdi. Qarasa, ishni tugallab va barchaning aqlu hushini o‘g‘irlab buyon kelmoqda. Bir to‘p kishilar “marhabo” so‘zi sadosini Surayyoga yetkazmoqda edilar. Bir xillar esa “shoh omon bo‘lsin” so‘zlariga mutarannim bo‘lishdi. Ba’zilar tahsin aytib, ayrimlar “ofarin” deya qichqirishardi.

Xullas shu yanglig‘ tantana va bu kabi dabdaba ichida ul yagona fozil Oliy Arkka kirib keldi. Ul jahon pahlavoni, xattotlar bayroqdorining qirq kun ichida mazkur majmuadan bir emas, ikkita nusxani yozuv doirasiga kiritib, bittasini amirga tuhfa o‘rnida, ikkinchisini o‘zi uchun bitgani ma’lum bo‘ldi. Adolatli podshoh ul davron yagonasi, olam durdonasiga boshqa marhamatlar va cheksiz tahsinu ofarinlardan tashqari ming dinor, boshdan-oyoq kiyim in’om qildi. Shunday nodir

qo‘lyozmani o‘z zamonasidan yodgor qoldirgan bu fozilning mardonaligi va yaxshi nomi haligacha tillarda doston.

Aytish lozimki, darvish tabiatli Fozil devona o‘sha xon bergan barcha tuhfa va pullarni Xudo yo‘lida sarf va xarj qilib, sharif mozor darvozasi tashqarisida Shotii Shohruddagi qalandarxona ro‘parasi va Gulzorda joylashgan Baland Yakka masjidiga vaqf mulki qilib berdi.

Ul farzona kotibning qabri qalandarxona ichidadir. Alloh rahmati bo‘lsin.

Bu Bedildan tanlangan asarlar sifatida kitobat qilingan qo‘lyozma nusxaning narxi yigirma ming tanga.

**Sharhi Matole. Mir Sayyid. Sharif Mirzojon. Muborakshoh.** Bu majmua go‘zalligi ta‘rif doirasidan tashqari darajada. Ziynatlarini ta‘riflashga so‘z topa olmaysiz. Bu ham kaminaning mulki bo‘lib “ajoyib narsadir” mazmuni u haqida kelgan kabidir. Uning menga tegishli ekanidan iftixor qilib, shukronalik bajo keltiraman. Mazkur “Sharhi matole”ni o‘qishga kirishar va bu muborak qo‘lyozmaga nazar tashlar ekanmen, ko‘ksim uzra nur taralgandek bo‘ladi. Kaminai kamtarin ana shu sharif qo‘lyozma nusxa egasi ekanim tufayli qayta nom qozongandek bo‘laman. Xudoga cheksiz shukrlar bo‘lsin. Narxi qirq ming tanga.

Bu to‘plam Mirzo Muhammad Sharif munshiy bin Mirzo Muhammad Baqo xati bilan sayyid martabali Xoja Ismatulloh bin Shayx Muhammal Omon buyrug‘i bo‘yicha shaharlar onasi va dorussaltana (Balx)da kitobat qilingan.

**Hadiqai Hakim Sanoiy.** Juda chiroyli qo‘lyozma. Xatining o‘ta go‘zalligi uni yozgan kotib qudratidan xabar berib turibdi. Narxi o‘n ming tanga.

**Mavlaviy Sodiq. Sharhi Mullo.** Fozillar ustozи mavlono Sodiq janoblari firdavsmونанд Samarqанд shahridа tug‘ilib-o‘sganlar. Ilmlar egallagach, gulga kon Kobul shahriga borib, Hakim podshoh ibn Humoyun Mirzодан mehribонliklar ko‘rib, u yerdan Hajga ketganlar. Hijriy 904 yili yana asl vatani Samarqандга qaytib kelganlar va shaharga kirib kelishi ta’rixini “xayri maqdam” so‘zлari qilib belgilagan ekanlar.

O‘shanda shayboniy Abdulloh Bahodirxon mavlono Sodiq Halvoiyga Samarqанд shahrining qozi-yul quzzotlik mansabini bergen. Vafoti hijriy 1006 yili ro‘y berib, Xoja Abdi Darun mozori yonida dafн qilingan. Zamondoshi shoир Mutribiy bu sana ta’rixini “bigu faxri ahli din” so‘zларидан topган:

    Ey      dil,      hazor      hayf      ki      andar      sibti      xok,  
On      kas      ki      bud      xotami      afzolro      nigin.  
Zotash      ki      bud      jomei      majmuai      kamol,  
Bar      masnadi      rasuli      Xudo      bud      jonishin.  
Soli      vafot      u      justam      zi      Mutribiy,  
Dar girya gasht va guft: Bigu faxri ahli din (111)

Mazmuni:

Ey      dil,	ming	hayf	ki	tuproq	quchog‘ida,	
Yaxshilar	uzugiga	qosh	bo‘lgan	bir	zot	yotar.
Zoti	kamol	to‘plamining		majmuasi		edi,
Xudo	rasuli	o‘rindig‘ida		o‘rinbosar		edi.

Mutribiydan vafoti yilini so‘radim,  
Yig‘iga tushdi-yu dedi: Faxri ahli din.

Narxi besh ming tanga.

**Fatovii Bahr il-Roiqning yetti jildi.** Yetti jilddan iborat dastxat. Barchasi butunligicha bir xat va bir qog‘ozga kitobat qilingan. Ilgari bunday katta hajmli kitobning bu shaklda bir xil xat bilan yozilganini ko‘rmagandik va boshqa shunaqa qo‘lyozma nusxa borligini ham hech kim aytib beraolmaydi.

Xatining go‘zalligi ta’rif bayoniga sig‘maydi. Tengi yo‘q. Bunday noyob va aziz kitob mulkim bo‘lgani va tasarrufimda turganiga cheksiz shukrlar. Bahosi o‘ttiz ming tanga.

**Bahril-manofe.** Go‘zal bitikli oliv kitob.  
Narxi o‘n ming tanga.